O' Z B E K I S T O N R E S P U B L I K A S I
OLIY VA O'RTA MAXSUSTA'LIM VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI




# KASBIY PEDAGOGIKA FANIDAN МАРУЗАМАТНИ.

TERMIZ-2013

Mazkur ma’ruza matn Informatika va axborot texnologiyalari, Kimyo texnologiyasi ta’lim yo’nalishlarining davlat ta'lim standarti, fanning namunaviy o’quv dasturi talablari asosida tayyorlangan bo’lib, talabalar «Kasbiy pedagogika» fanidan ma'ruza, seminar, tajriba mashg’ulotlariga tayyorgarlik ko’rishda, mustaqil ish to’shiriqlarini bajarishda, joriy, oraliq, yakuniy nazoratlarga tayyorlanishda foydalanadilar. Shuningdek, o’z bilimini tekshirib ko’rishi uchun savollar kiritilgan bo’lib talabani o’z ustida ishlashga ko’mak beradi.

Majmuada ushbu fandan baholash mezoni ham keltirilgan bo’lib, talaba to’plashi kerak bo’lgan ballarni yig’ishda yo’riqnoma sifatida foydalanadi.


**Kafedra mudiri:** **P.f.n. M.Bozorova**

**Tuzuvchilar:** **P.f.n. A.Rahmatullayev**

**o’q. O. Bobonazarov**

**Taqrizchi:** **P.f.n. R. Imomqulov**

**Mavzu: “Kasbiy pedagogika” fanining mazmuni maqsadi va vazifalari**

**REJA:**

**Mudarija:**

**1.O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI UMUMIY VA KASBIY TA’LIM TIZIMI ISLOHATLARI.O’RTA MAXSUS, KASB HUNAR TA’LIMI IJTIMOIY-ITISODIY O’ZGARISHLAR SHAROITIDA. ....3**
**YUQORIDAGI RASMDAN KO’RINIB TURIBDIKI, PEDAGOGIK JARAYON ....50**
**PEDAGOGIK JARAYON DAVRIY XARAKTERGA EGA BULIB ....51**
**AJDODLARIMIZNING BARKAMOL SHAXS HAQIDAGI GOYALARI MOHIYATINI ANGLASH UCHUN ....53**
**TA’LIM TOR MAHNODA O’QITISH TUSHUNCHASINI ANGLATADI. LEKIN U FAQAT TURLI O’QUV YURTLARIDA O’QITISH JARAYONI EMAS, BALKI OILA, ISHLAB CHIQARISH VA SHU KABI SOHALARDA HAM MAHLUMOT O’ZLASHTIRISH JARAYONIDIR. ....57**
Kasb-hunar ta’limining qonuniyatlari va printsiplari ....77
Kasb-hunar ta’limi jarayonining ishtirokchilari ....86
Kasbiy tayyorgarlik jarayonida ishlab chiqarish ta’limining urni ....105

# 1.O’zbekiston Respublikasi umumiy va kasbiy ta’lim tizimi islohatlari.O’rta maxsus, kasb hunar ta’limi ijtimoiy-itisodiy o’zgarishlar sharoitida.

2.“Kasbiy pedagogika” fanining maqsad va vazifalari. Kasbiy pedagogikaning asosiy tushunchalari: kasbiy ta’lim, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy tarbiya, unumli mehnat, professionallik, kasbiy mahorat.

Pedagogik jarayon deganda o’qituvchi va uquvchining belgilangan maqsadga erishish borasidagi uzaro hamkorlik faoliyati tushuniladi, bunda avvalda belgilangan uzgarish holati sodir bulib, ukuvchiing shaxsiy sifat xislatlari uzgaradi. Boshqacha aytganda ijtimoiy tajriba shaxs sifat fazilatlarga aylantiriladi. Pedagogik manbalarda "ta’lim-tarbiya jarayoni iborasi ham sinonim sifatida ishlatilgan. Lekin rus pedagog olimlari P.F.Kapterev, A.I. Pinkevich, Yu.K. Babanskiylarning fikricha "ta’lim-tarbiya jarayoni" tushunchasi nisbatan tor mahnoni anglatib yaxlitlik xususiyatini ochiq bera olmaydi. Ta’lim-tarbiya va rivojlanishning birligini tahminlash bilan pedagogik jarayonning yaxlitligi va umumiyligiga erishiladi.

Pedagogik jarayon tizim sifatida, uziga qator uzaro aloqador tarkibiy elementlarni qamrab oladi. Pedagogik jarayonda shakllantirish rivojlantirish, tarbiyalash, shuningdek, barcha shart-sharoitlar, shakllar metodlar uzaro birikib yagona yaxlitlikni hosil qiladi.

Pedagogik jarayonning bunday tarzda talkin etilishi uning tashkil etuvchi elementlarini aniq ajratib olish bilan birga bu elementlar orasidagi uzaro alokadorlik va munosabatlarni tahlil etish shuningdek, pedagogik amaliyotda uni boshkarish imkoniyatini beradi.

Tuzilma (lotincha struktura, tuzilish) bu tizimdagi elementlarning joylashishini anglatadi.

Tizim tuzilmasini mahlum mezonlarga kura ajratiladigan tarkibiy qism (komponent) lar, shuningdek, ular orasidagi aloqadorlik tashkil etadi. Tizim komponentlarining uzaro aloqadorligini tushunish bilangina ushbu jarayonning sifat va samaradorligini oshirish muammosining yechimini topish mumkin.

Pedagogik jarayonning obhekti bir paytning uzida subhekt hamdir. Bu jarayonning natijasi tugridan-to'g'ri ishtirokchilarning uzaro xamkorligi (tahsiri), qullanilayotgan texnologiya va uquvchiga bog'likdir.

Pedagogik jarayonni yaxlit tizim sifatida tahlil etish uchun tahlil kilish mezonlarini urnatish zarur. Mezon sifatida har qanday shart-sharoit erishilgan natija ulchami olinishi mumkin. Muhimi u tizimni urganish maqsadlariga javob bersa bas (3 - chizmagaqarang).3-chizma




**Pedagogik jarayonnig sxematik kurinishi**

**Yuqoridagi rasmdan ko'rinib turibdiki, pedagogik jarayon** mahlum qonuniyatlarga asoslanadi. Pedagogik jarayonning ishtirokchilari(o'qituvchi va ukuvchilar), maqsad (vazifalar), mazmun, tashkil etish shakllari, vosita va metodlar, natija bir-biriga uzviy bogliq.

Har qanday jarayon kabi ta'lim-tarbiya jarayoni ham mahlum konuniyatlarga asoslanadi. Qonuniyatlarda obhektiv zarur, muhim, takrorlanuvchi alokadorliklar uz ifodasini topadi.

Pedagogik jarayonning konuniyatlari sirasiga kuyidagilarii kiritish mumkin:

1. Pedagogik jarayonning dinamik xarakteri.

2. Pedagogik jarayonda shaxsning rivojlanishi.

3. Pedagogik jarayonning boshqariluvchanligi.

4. Pedagogik jarayon ishtirokchilarini ragbatlantirilishi.

5. Pedagogik jarayonda his-tuygu, mantiq va amaliyotning birligi.

6. Ta'lim jarayoni ishtirokchilarining ichki va tashqi faoliyati birligi.

7. Pedagogik jarayonning kechishi va natijasini boshqa kuplab omillarga bogliqligi: Masalan: a) jamiyat va shaxe ehtiyojiga; b) jamiyatning moddiy- texnik, iqtisodiy va boshqa imkoniyatlariga; v) jarayon kechadigan shart-sharoit axloqiy, psixologik, sanitariya-gigienik, estetik va shu kabilar.

8. SHuningdek, kasb-hunar ta'limi, ishlab chiqarishning ham qonuniyatlarini hisobga olishi shart hisoblanadi. Kasb-xunar ta'limini tadqiq etgan S.Ya. Batqshev, K.N. Katxanov, N.I. Dumchepko, L.P. Belyaeva, K. Davlatov, K Mirsaidov kabi vatandosh va chet ellik olimlariipg fikriga kushilgan holda, kuyidagi ishlab chikarish konuniyatlariga asoslaiit zarurligini kursatib utamiz:

- ishlab chiqarish munosabatlarining ishlab chikarish kuchlari xarakteriga mosligi;
- mulkchilik munosabatlari;
- mexnat xarakteridagi uzgarishlar;
- ishlab chikarish darajasidan talab va extiyojning yukoriligi;
- mexnatga yarasha taksimot;
- ishlab chikarish vositalarining ishlab chikarishga nisbatan usishi;
- rejali, proportsional rivojlanish;
- moddiy nehmat yaratuvchilar uzlarining ongi, xulk-atvori va tuygularini kayta ishlab chikishi;
- yirik mashinasozlik sanoatini uzluksiz ortib borishi;
- ishlab chikarish jarayonlarini tabakalashtirish va integratsiyalashtirish;

- ishlab chikarishni ixtisoslashtirish va kooperatsiyalashtirish;

-ishlab chikarishni majmuaviy mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish va robotlashtirish;

- ishlab chikarishning intellektuallashuvi;

- mehnat resurslarining uzaro taksimlanish surhatitshng ortishi;

- xujalik hisobi, uz-uzini mablag bilan tahminlash;

- sanoat sohasi bilan mashgul mutaxassislar sonining kiskarishi;

- mehnatni jamoaviy tashkil etishning ortishi, demokratiyalash va o’z o’zini boshqarish kabilar.

**Pedagogik jarayon davriy xarakterga ega bulib**, kuyidagi boskichlarni uziga qamrab oladi:

1. Tayyorgarlik bosqichi;
2. Asosiy (amalga oshirish) boskichi;
3. Nazorat bosqichi.

Bu boskichlarning xarakterli xususiyatlari kuyidagilardan iborat.

Pedagogik jarayonning tayyorgarlik boskichida kuyidagi muxim vazifalar xal etiladi:

- maqsad belgilanadi, shart-sharoit aniqlanadi, aniq natija belgilanadi, jarayonning kechishi loyihalashtiriladi. Bu bosqichda ta’lim-tarbiya jarayonining maqsadini aniq va tugri belgilash muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik jarayonni amalga oshirish boskichida maqsad va vazifalarning kuyilishi tushuntiriladi, ishtirokchilarning uzaro hamkorlikdagi faoliyatlari amalga oshiriladi, belgilangan tashkiliy shakl, metod va vositalardan foydalaniladi, kulay shart-sharoit yaratiladi, ukuvchilar ragbatlantiriladi, pedagogik jarayon bilan boshqa jarayonlar orasidagi alokadorlik tahminlanadi. Pedagogik jarayonning ushbu boskichida teskari alokadorlik muhim bulib, u tezkor boshqaruvchilik, xulosalar chikarish imkonini beradi. Teskari aloqa jarayonini sifatli kechishini tahminlash lozim bulib, uning rivojlanishi va mustahkamlanishiga har kaysi ukituvchi muhim masala sifatida ustuvor axamiyat berishi zarur.

Pedagogik jarayonning nazorat bokichida- erishilgan natija bilan kuyilgan maksad qiyoslanib, tahlil etiladi va xulosa chikariladi, kerak bulgan xollarda avvalgi boskichlarga uzgartirishlar kiritiladi.



**Adabiyotlar ro’yxati:**

**1.** Barkamol avold orzusi,  T., 1999.
**2.** Barkamol avlod- o’zbekiston taraqqiyotining poydevori , T., 1998.

**3.**O’zbekiston respublikasining konstituttsiyasi , T., 1992.
**4.**G’aybullaev va boshqalar, ijtimoiy islohatlar va ta’lim tarbiya, T., 1995.

## Ma’ruza: Kasb ta’limining shakllanish bosqichlari.

**REJA:**

**1.**O’rta Osiyo hududida kasbiy ta’lim tizimi shakllanishining tarixiy shart-sharoitlari. O’rta Osiyo mutafakkir olimlari kasbiy ta’lim haqida.

**2.** Anjuman-ma’ruzani yakunlash.

Hozirgi zamon kasb-hunar ta’limi tizimi faqatgina XX asr oxiri ilmiy-pedagogik tafakkurining natijasigina bulmay, balki uning poydevori insoniyat jamiyatining uzoq tarixi davomida tuplangan tajribasiga xamda

Olimlar, mutafakkirlar, pedagoglar ishlab chiqarishning turli sohalaridagi mutaxassislarning mehnatlariga asoslangan. Markaziy Osiyoda, shuningdek, hozirgi Uzbekiston hududida kasb-hunar ta’limining tub asoslari bundan uch miig yil avval Avestoda bayon etilgan desak xato qilmaymiz. Lekin bu boradagi tajribalar bizda yetarli darajada urganilmagan. SHu bois, bugun butun dunyo, xususan SHarq xalqlarining tarixiy merosini zamonaviy kasb-hunar ta’limi mazmuni va tuzilmasiga singdirilishini davr uzi taqozo etmokda.

SHark mutafakkirlari uz asarlarida yoshlarning kasb-hunar ta’limi va tarbiyasiga katta ahamiyat berib,. kasb-hunar o’ganishni jismoniy, aqliy va mahnaviy kamolotga erishishning asosiy vositasi deb bilganlar.

Buyuk ajdodlarimiz aqliy, jismoniy va mahnaviy tarbiya kasb-hunar sir- sinoatlarini egallashning asosiy omili deb talqin etganlar. Ular uchun inson timsoli kamolotga yetgan, ilmli yoki kasb-hunarga ega ijobiy fazilatlar sohibi bulgan. Misol uchun Kaykovus uz farzandiga qarata:

"Ey farzand, ogoh bulki, hunarsiz kishi hamisha foydasiz bulur va hech kishiga naf yetkurmas. Bilursanki, xori mugilonning tani bordur, ammo soyasi yukdur. Xunarsiz kishi ham xori mugilon yanglig na uziga va na uzgaga foyda berur.

Agar kishi har qanchaki oliy nasab va asl bulsa, ammo hunari bulmasa, xaloyiqning izzat va hurmatidin noumid bulur. Agar kishida ham nasab gavhari va ham hunar zevari bulmasa, undan batarrokdur. Jaxd kilgil, agar gavharing har nechakim asl bulsa, unga garra bulmagil, nedinkim tan gavhari hunar zevari bila muayyan bulmasa, u hech narsaga arzimagusidur.

ANDOHKIM debdurlar: "Uluglik aql va donishlik birladur, gavhar va nasab birla bulmas".

Otni ota va onang kuymishlar,sen unga garra bulmagil, nedinkim, ul otmazki bir nishondin uzga narsa emasdur. Ammo sen hunar bila bir nomga ega bulgil. Uzingni "Jag’far", "Muhammad", "ustod", "xuja", "fozil" oti bila atab, ammo unga loyiq bulmasang, u ot ermasdur. Agar kishida nasab gavhari bulsa, ammo hunar zevari bulmasa, u xech kishining suhbatiga loyiq bulmagusidur. Garchi bu ikki gavhar x.osil qilgon kishi topsang, etagini mahkam tutgil va undin ilkingni chekmagil, bilki u barcha kishilarning mushkulin oson qilgay.

Barcha hunardin suz :hunari yaxshirokdur, nedinkim,... hamma maxluqotdin odam yaxshiroq yaraldi va o’ziga jonivordin odam o’n daraja ziyodadudur va bu o’n daraja odamning badanida hamisha bordurr. Beshi tashida zohirdur, beshi ichida pinhondur.Ul PINHON narsalar: biri, bir narsani yed olmoq; biri, hamisha esda saqlamoq, biri taxayyul (xayolga keltirmoq); biri tahavvur(gazab va shiddat bilan hujum etish);biri takallum(suzlash). Ammo ul beshtakim tashida zohirdur: bu zavq, yag’ni eshitmok,. kurmoq, hid bilmoq, totmoq, siypalamoq, yag’ni sezuv [45;31-32].

**Ajdodlarimizning barkamol shaxs haqidagi goyalari mohiyatini anglash uchun** Abu Nasr Forobiy tomonidan hozirgi paytda komil inson deb yuritilayotgan fozil odamning un ikki *muxim* fazilati yoki Alisher Navoiyning Farxod obrazi orqali talqin etilgan:

"Xunarni asrabon netkumdir oxir,
Olib tuproqkamu ketgumdir oxir".

Fikrlarini taxlil etishning uzi kifoya. Ular mahnaviy barkamollikka inson o’z mehnati bilangina erishishi mumkinligini baralla kuylaganlar, mexnat va kasb-xunarni inson hayoti va baxtining moddiy va mahnaviy asosi deb hisoblaganlar.

Burxoniddin az Zarnujiy ilm, kasb-xunar urganish uchun eng avvalo ukuvchida jiddiy xoxish, qatg’iyat bulishi lozimligini, shundan keyin yaxshi ustoz xamda yetarlicha vaqt zarurligini qo’rsatgan. Ibn Sino ilmu amalning birligi, yahni nazariya bilan amaliyotni uzviy boglash, dual ta’lim goyasini ilgari surgan.

Tarixiylik va tizimli tahlil printsipi respublikamiz kasb-xunar tag’limining butun rivojlanish yuliga yangicha nazar tashlashni talab etadi. Bu holat uz navbatida ushbu ta’limning rivojlanish yuli va turli bosqichlarini tarixiylik nuqtai nazaridan tahlil etib, qonuniyatlari va uziga xos xususiyatlarini aniklash imkonini beradi.

Respublikamiz kasb-xunar ta’limida mikdor ko’rsatkichlari va tashkiliy shakllaridagi uzgarishlar dinamikasining taxlili bizga shartli ravishda tabiatiga ko’ra kasb-xunar ta’limi tizimining farklanuvchi kuyidagi rivojlanish bosqichlarini ajratib kursatish imkonini berdi.

1. 1924-1940 -yillarda ta’lim tizimi sifatida vatanimiz kasb-hunar tag’liminnng tarkib topishi va rivojlanishi barqaror bulmagan davri;
2. 1941-1959 yillarda safarbarlik davri.
3. 1960-1980 yillar evolyutsion rivojlanish davri;
4. 1981-1986-yillar - sakrashsimon uzgarishlar inqirozoldi davri;
5. 1987-1990-yillar - rivojlanishdagi sifat uzgarishlar (inqiroz) davri;
6. 1991-1996-yillar inqirozdan asta-sekin chiqish va barqarorlik (moslashish) davri;
7. 1997-2002-yillar - kadrlar tayyorlash milliy modelini amalga joriy ishning birinchi bosqichi (yangitdan rivojlanish) davri;
8. 2003 yildan xozirgi vaqtgacha bulgan davri.

Zikr etilgan boskichlarga ajratish mezoni sifatida kasb-xunar ta’limi pgshmining kuyidagi kursatkichlariga asoslandik: ukuv muassasalari mikdori va har yilgi bitiruvchilarning soni shuningdek yangi o’quv yurtlariga aylanishi va ularning turli darajalarga bo’linishi. Tarixiy manbaalarni urganish bizga o’tgan asrning 20-yillaridan boshlab respublikada kasb-hunarga uqitish buyicha maxsus kurs va maktablar tashkil etila boshlanganligidan darakberib, ular tugallangan bilimlar berishni emas, balki mahlum ish urinlarida ishlash uchungina zarur bulgan tor doiradagi bilim, kunikma va malakalarni berishni maqsad kilib qo’ygan edi.

Dastlab barcha yirik korxonalar koshida fabrika-zavod ukuvchilari (FZU), kurslari va sanoat-texnika o’quv yurtlari tashkil etila boshladi, ularda maxsus uquv predmetlari bilan bir qatorda umumta’lim uquv predmetlari ukitilgan. Usha davrda korxonalarning texnik jihozlanishi past darajada bulganligi bois ukuv yurtlarining ham jihozlari ularga mos mahlum mahnoda chegaralangan darajada edi. Respublikamizda katta sanoat korxonalari mavjud bulmaganligi sababli XX asrning 30- yillarigacha texnikumlar, zavod fabrika ukuv kurslari, hunar texnika maktablari, ukuv ishlab chiqarish ustaxonalari va turlicha hunar- texnika bilim yurtlari muntazam ko’paya bordi. Lekin kasb-xunar ta’limiga ajratilgan davlat byudjetining

mikdori yaxlit holda yetarli darajada bulmaganligi sababli uquvchilarni ovqatlantirish va kiyim-kechak bilan tahminlash darajasi past edi. SHuningdek, yotokxona masalasi ham asosiy muammolardan biri bulib, kasb-hunar ta’limi xodimlariga juda kam ish haqi tulanar edi. SHu bois 1930-yillardan boshlab bunday uquv yurtlari tarmogi kamaya boshladi. 1938 yilga kelib 1932-1933 ukuv yiliga nisbatan ukuv yurtlari va ularda uqiydigan uquvchilar soni 3 barobar kamaygan.

1930 yillarning oxiri 40-yillarning boshlarida respublikada sanoat korxonalari tashkil etila boshladi. Tarixiy manbalar tahlili 1940 yilda Uzbekistonda, 1445 ta yirik sanoat korxonalari mavjud bulganligi hakida guvoxlik beradi. Bu sanoat korxonalarida zamonaviy texnika va ilgor texnologiyalarning amalga joriy etilishi ommaviy ravishda texnik jihatdan savodxon ishchi kadrlar tayyorlash zaruratini kun tartibiga kuydi. Ana shunday malakali kadrlar tayyorlash vazifasi 1940 yilda tashkil etilgan davlat mehnat zahiralari tizimiga yuklatildi. Davlat *mehnat* zahiralari tizimida asosan quyidagi uch turdagi: hunarmandchilik uquv yurtlari, temir yul uquv yurtlari va fabrika- zavod ukuvchilar maktablarini uziga qamrab oldi . SHunday qilib, yana ishchi mutaxassis kadrlar tayyorlashga dikqat ehtibor kuchaytirildi. Lekin 1941 yilda boshlangan ikkinchi jahon urushi kasb-xunar ta’limi tizimiga ham bevosita uz tahsirini kursatmay quymadi. Mamlakatdagi urush x.olati barcha ishchilarni frontga safarbar etish bilan bir vaqtda sanoatni tuliq harbiy qurol-aslaha ishlab chiqarishga utkazishni talab etdi. SHu bois nisbatan qiska vaqtda yoshlardan ishchi mutaxassislar tayyorlashga talab ortdi. SHuning uchun yangi ukuv yurtlari tashkil etish bilan bir katorda, vaqtiichalik fabrika- zavod ukuvchilar maktablari tashkil etildi. Mamlakatning tarkibidan evakuatsiya qilingan ukuv yurtlari kiska muddatlarda kayta tiklanib ishga tushirildi. Natijada fakat urush yillarining uzida respublikamiz mehnat zahiralari tizimida 70 mingga yakin malakali ishchilar tayyorlanib, ulardan 30 ming shu yerlarda qoldirilib, qolganlari mamlakatning boshqa rayonlariga jqnatildi. Urushdan keyingi yillarda xalq xo’jaligini tg’iklash uchun ishlab chiqishga kirishildi. Demak, bu davrda mexanizatsiyalashgan ishlab chikarish sharoitida mehnat kiluvchi murakkab kasblar sohibi bulgan malakali mutaxassislar tayyorlash zarurati kelib chiqdi.

1960-1980-yillar kasb-xunar ta’limining evalyutsion rivojlanish davrida kasb-hunar ukuv yurtlari tarmogi bevosita va nisbatan bark.aror ortib bordi. Bu davrning asosiy uziga xos xususiyatlari kuyidagi 1-jadvalda uz ifodasini topg

**Ma'ruza:O'zbekiston Respublikasi kasbiy ta'limning rivojlanish bosichlari**
**REJA:**

1.O'zbekiston hududida kasb-hunar ta'limining tub asoslari.
2.Kasb-hunar ta'lim tizimi mustaqil tarmoq sifatida uning rivojlanish bosqichlari.

Respublikamiz kasb-xunar ta'limida mikdor ko'rsatkichlari va tashkiliy myukllaridagi uzgarishlar dinamikasining taxlili bizga shartli ravishda tabiatiga ko'ra kasb-xunar ta'limi tizimining farklanuvchi kuyidagi rivojlanish bosqichlarini ajratib kursatish imkonini berdi.

1. 1924-1940 -yillarda ta'lim tizimi sifatida vatanimiz kasb-hunar taьliminnng tarkib topishi va rivojlanishi barqaror bulmagan davri;
2. 1941-1959 yillarda safarbarlik davri.
3. 1960-1980 yillar evolyutsion rivojlanish davri;
4. 1981-1986-yillar - sakrashsimon uzgarishlar inqirozoldi davri;
5. 1987-1990-yillar - rivojlanishdagi sifat uzgarishlar (inqiroz) davri;
6. 1991-1996-yillar inqirozdan asta-sekin chiqish va barqarorlik (moslashish) davri;
7. 1997-2002-yillar - kadrlar tayyorlash milliy modelini amalga joriy ishning birinchi bosqichi (yangitdan rivojlanish) davri;
8. 2003 yildan xozirgi vaqtgacha bulgan davri.

Zikr etilgan boskichlarga ajratish mezoni sifatida kasb-xunar ta'limi pgshmining kuyidagi kursatkichlariga asoslandik: ukuv muassasalari mikdori va har yilgi bitiruvchilarning soni shuningdek yangi o'quv yurtlariga aylanishi va ularning turli darajalarga bo'linishi. Tarixiy manbaalarni urganish bizga o'tgan asrning 20-yillaridan boshlab respublikada kasb-hunarga uqitish buyicha maxsus kurs va maktablar tashkil etila boshlanganligidan darak | berib, ular tugallangan bilimlar berishni emas, balki ma'lum ish urinlarida 1 ishlash uchungina zarur bulgan tor doiradagi bilim, kunikma va malakalarni | berishni maqsad kilib qo'ygan edi.

Dastlab barcha yirik korxonalar koshida fabrika-zavod ukuvchilari (FZU), kurslari va sanoat-texnika o'uv yurtlari tashkil etila boshladi, ular da maxsus uquv predmetlari bilan bir qatorda umumta'lim uquv predmetlari ukitilgan. Usha davrda korxonalarning texnik jihozlanishi past darajada bulganligi bois ukuv yurtlarining ham jihozlari ularga mos ma'lum ma'noda chegaralangan darajada edi. Respublikamizda katta sanoat korxonalari mavjud bulmaganligi |sababli XX asrning 30- yillarigacha texnikumlar, zavod fabrika ukuv kurslari, hunar texnika maktablari, ukuv ishlab chiqarish ustaxonalari va turlicha hunar- texnika bilim yurtlari muntazam ko'paya bordi. Lekin kasb -xunar ta'limiga ajratilgan davlat byudjetining mikdori yaxlit holda yetarli darajada bulmaganligi sababli uquvchilarni ovqatlantirish va kiyim-kechak bilan ta'minlash darajasi past edi. SHuningdek, yotokxona masalasi ham asosiy muammolardan biri bulib, kasb-hunar ta'limi xodimlariga juda kam ish haqi tulanar edi. SHu bois 1930-yillardan boshlab bunday uquv yurtlari tarmogi kamaya boshladi. 1938 yilga kelib 1932-1933 ukuv yiliga nisbatan ukuv yurtlari va ularda uqiydigan uquvchilar soni 3 barobar kamaygan.

1930 yillarning oxiri 40-yillarning boshlarida respublikada sanoat korxonalari tashkil etila boshladi. Tarixiy manbalar tahlili 1940 yilda Uzbekistonda, 1445 ta yirik sanoat korxonalari

mavjud bulganligi hakida guvoxlik beradi. Bu sanoat korxonalarida zamonaviy texnika va ilgor texnologiyalarning amalga joriy etilishi ommaviy ravishda texnik jihatdan savodxon ishchi kadrlar tayyorlash zaruratini kun tartibiga kuydi. Ana shunday malakali kadrlar tayyorlash vazifasi 1940 yilda tashkil etilgan davlat mehnat zahiralari tizimiga yuklatildi. Davlat *mehnat* zahiralari tizimida asosan quyidagi uch turdagi: hunarmandchilik uquv yurtlari, temir yul uquv yurtlari va fabrika- zavod ukuvchilar maktablarini uziga qamrab oldi . SHunday qilib, yana ishchi mutaxassis kadrlar tayyorlashga dikqat e’tibor kuchaytirildi. Lekin 1941 yilda boshlangan ikkinchi jahon urushi kasb-xunar ta’limi tizimiga ham bevosita uz ta’sirini kursatmay quymadi. Mamlakatdagi urush x.olati barcha ishchilarni frontga safarbar etish bilan bir vaqtda sanoatni tuliq harbiy qurol-aslaha ishlab chiqarishga utkazishni talab etdi. SHu bois nisbatan qiska vaqtda yoshlardan ishchi mutaxassislar tayyorlashga talab ortdi. SHuning uchun yangi ukuv yurtlari tashkil etish bilan bir katorda, vaqtiichalik fabrika- zavod ukuvchilar maktablari tashkil etildi. Mamlakatning tarkibidan evakuatsiya qilingan ukuv yurtlari kiska muddatlarda kayta tiklanib ishga tushirildi. Natijada fakat urush yillarining uzida respublikamiz mehnat zahiralari tizimida 70 mingga yakin malakali ishchilar tayyorlanib, ulardan 30 ming shu yerlarda qoldirilib, qolganlari mamlakatning boshqa rayonlariga jqnatildi. Urushdan keyingi yillarda xalq xo’jaligini tьiklash uchun ishlab chiqishga kirishildi. Demak, bu davrda mexanizatsiyalashgan ishlab chikarish sharoitida mehnat kiluvchi murakkab kasblar sohibi bulgan malakali mutaxassislar tayyorlash zarurati kelib chiqdi.

1960-1980-yillar kasb-xunar ta’limining evalyutsion rivojlanish davrida kasb-hunar ukuv yurtlari tarmogi bevosita va nisbatan bark.aror ortib bordi. Bu davrning asosiy uziga xos xususiyatlari kuyidagi 1-jadvalda uz ifodasini topgan.

1-jadval

| Yillar | U^v 1yuassasalarshsh ng soni | Ukuvchilar soni (ming kishi xdsobida) | Equabul kznlingan 5Ьquvchilar (ming kishi) | Tayyorlangan (bitirgan) malakali ishchilar (ming kishi) |
|---|---|---|---|---|
| 1960 | 75 | 18,0 | 14,1 | 10,1 |
| 1965 | 84 | 25,4 | 22,7 | 21,1 |
| 1970 | 126 | 47,9 | 45,4 | 41,8 |
| 1975 | 275 | 117,4 | 102,9 | 74,7 |
| 1980 | 488 | 223,1 | 142,5 | 115,2 |

Jadvaldan yakdil kurinib turibdiki, ukuvchilar sonining ortib borish maromi (tempi) ukuv yurtlari soniga nisbatan yuqori darajaga ega. Bu, uz pavbatida yangi ukuv yurtlari va majmualari tashkil etishni talab etganligi tabiiy hol. SHu sababli 1961-1964-yillar davomida respublikadagi barcha mehnat zaxiralari ukuv yurtlari yagona shax.ar va kishloq xunar-texnika bilim yurtlariga aylantirilib, ularning har biri ma’lum sohalar buyicha ixtiisoslashtirilib, malakali ishchilar tayyorlashga kirishildi. 1970- yillarning oxiridan boshlab ommaviy ravishda o’rta ma’lumotli ishchilar tayyorlashga qildi. Ana shu davrga kelib, hunar-texnika ta’limi sohasida ilmiy-tadqiqot va ilmiy-metodik ishlar olib borish faoliyati faollashdi. Kasb-xunar ta’limi bu davrda respublika xalk, xujaligining barcha sohalariga galab etilgan ixtisosliklar buyicha mutaxassis kadrlar tayyorlab bera oldi. Uming huquqiy-me’yoriy, moddiy-texnik, ukuv-uslubiy bazasi kengaytirildi va mustax.kamlandi.

**Mavzu: O’zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi islohotlari.**

**Reja**

1.Ta’lim tizimi islohotlarini muvaffaiyatli amalga oshirish shart-sharoitlari: milliy pedagogik merosga tayanish, yangi maqsad va vazifalarni aniq belgilab olish, bosichma-bosich amalga oshirish, tadrijiylik

2.Ta’lim tizimi islohotlarining moiyati: izchillik, ochilik, fuqarolarning ta’limga bo’lgan extiyojlarini qoniqtira olish, jamiyatning talablariga javob berish, jahon kasb va ta’lim bozorida samarali faoliyat yuritish va raqobat qila olish.

**TA’LIM** -bilim berish, malaka va ko’nikma hosil qilish jarayoni, kishini hayotga mehnatga tayyorlashning asosiy vositasidir. Ta’lim jarayonida bilim o’zlashtiriladi va tarbiya amalga oshiriladi.

Ta’lim tor mahnoda o’qitish tushunchasini anglatadi. Lekin u faqat turli o’quv yurtlarida o’qitish jarayoni emas, balki oila, ishlab chiqarish va shu kabi sohalarda ham mahlumot o’zlashtirish jarayonidir.

Ta’lim ilm berish va tarbiyalashni o’ziga qamrab olib, respublikaning aql zakovat va ilm borasidagi kuch-quvvatini rivojlantirish, jamiyat, oila va davlat oldidagi o’z mashuliyatini anglaydigan har jihatdan barkamol erkin shaxsni shakllantirish maqsadini ko’zlaydi. SHuning uchun ham u ustuvor soha hisoblanadi.

Ta’lim faoliyati o’z tarkibiga quyidagilarni qamrab oladi: a) mahlum bir tajriba va amaliy faoliyat turini muvaffaqqiyat bilan tashkil qilish uchun olamning zarur xususiyatlari haqidagi axborotlarni o’zlashtirish (bu jarayonning mahsuloti bilimlardir); b) mana shu faoliyat turlarini yuzaga keltiradigan usul va vositalarni o’zlashtirish (bu jarayonlarning mahsuloti malakalardan iborat bo’ladi); v) ko’zlangan maqsad va berilgan masala shartiga mos ravishda to’g’ri yo’l va usul tanlash hamda nazorat qilish uchun ko’rsatilgan axborotlardan foydalanish usullarini egallash (bu jarayonning mahsuli – malakadan iborat bo’ladi).

Insonning mahlum bilim, ko’nikma va malakalarni o’zlashtirishida ongli maqsad bilan boshqariladigan barcha harakatlari ta’lim bilan bog’liq bo’ladi.



Ta’limning mohiyati, maqsadi va mazmuni jamiyatning madaniy taraqqiyoti, fan-texnikasining rivojlanganligi, ishlab chiqarish texnologiyalarining amalga joriy etish darajasi kabilar bilan belgilanadi. Ijtimoiy munosabatlar, umumiy mahlumotga bo’lgan talab va ehtiyoj, kishilarning kasbiy tayyorgarligiga, ta’lim haqidagi g’oyalarga qarab kishilik jamiyatining turli davr (bosqich)larida ta’limning mohiyati, maqsadi, mazmuni tashkil etish shakllari, amalga oshirish metodlari va vositalari o’zgarib, takomillashib boradi.

Ta’lim mohiyatiga ko’ra bu jarayonda ishtirok etuvchilarning o’zaro hamkorlikdagi faoliyatlarining natijasidir. Ta’lim jarayonida shaxsning dunyoqarashi, qobiliyati, fazilat (xislat)lari o’zgaradi. Ta’lim jarayonida kishilik jamiyatining ijtimoiy-tarixiy tajribalari tahsil oluvchilar tomonidan o’zlashtiriladi va shu yo’l bilan u avlodlar orasidagi mahnaviy-madaniy, ijtimoiy, ijtimoiy vorislikni taminlaydi.

Ta’limning metodologik asosini dealektik bilish nazariyasi tashkil etadi.

**KASBIY PEDAGOGIKA** – umumiy pedagogikaning bir sohasi bo’lib, u tarbiya, ta’lim, o’qitish haqida qator nazariy va amaliy mahlumotlar beradi. Kasbiy pedagogika sanoat, ishlab chiqarish va mehnat pedagogikasining masalalari bilan shug’ullanadi. Kasb-hunar ta’limi pedagogikasi bir necha bo’limlariga bo’linib, bu bo’limlarda kasbiy pedagogikaning asoslari va muhim malasalalarini, yahni kasb-hunar ta’limi yo’nalishlari, mehnat pedagogikasi, kasb-hunar didaktikasi kabi masalalarni qamrab oladi. SHuningdek ularda kasb-hunar tarbiyasining ijtimoiy psixologik shart-sharoitlari, kasb-hunar ta’limi nazariyasi va kasb-hunar ta’limi huquqi o’rganiladi.

**KASB TA’LIM TEXNOLOGIYaSI** - butun o’qitish va o’qish jarayonini ishlab chiqish, amalga oshirish va baholashning tizimi usuli bo’lib, u maqsadga erishishga yo’naltirilgan holda insonlarning o’rganish qobiliyati va ular o’rtasida muloqot to’g’risidagi tadqiqotlar natijasiga hamda ta’lim jarayonini yanada samarali tashkillashtirishning jonli, jonsiz vositalari bilan shug’ullanishga asoslanadi.

**DIDAKTIKA** – grekcha didaskien so’zidan olingan bo’lib, o’qitaman, o’qishni o’tgataman mahnolarini anglatadi. SHunga ko’ra didaktika – bu o’qitish nazariyasidir. Didaktika ukitish jarayonining shakllari, metodlari,tamoyillari, mazmuni, vazifasi va maksadlarini ishlab chikadi.

**METODIKA**– Pedagogikaning o’qitish, qonuniyatlari, qoidalari, tashkil etish shakllari, amalga oshirish va natijalari nazorat qilib baholash metod hamda vositalarini o’zida mujassamlashtiruvchi fan tarmog’idir. Har bir o’quv fani o’qitish sohasi o’rgatishning vazifalari, mazmuni, metodlari va tashkiliy ko’rinishi haqidagi metodika asosida quriladi.

**O’QITISH METODIKASI** - bu turli usullar tizimi bo’lib, o’quv-didaktik materiallardan foydalanish orqali belgilangan maqsadga erishish uchun nazariy dars va amaliy mashg’ulotlar paytida qo’llaniladigan usullar majmuasidir.

Kasbiy ta’lim metodikasi ijtimoiy hayotning mahlum sohasida faoliyat ko’rsatish uchun zarur bo’lgan bilim, amaliy ish-harakat usullarini shakllantirish qonuniyatlari, qoidalari, shakl, metod va vositalari hamda mazmuni haqidagi pedagogikaning muhim tarmog’idir.

**METOD**– iborasi (yunoncha-methodas-tadqiqot yoki bilish yo’li, nazariya, ta’limot mahnosini anglatib) voqelikni bilish, o’zlashtirish, o’zgartirish usullari majmuasidir. Metod aslida insonning amaliy faoliyati negizida vujudga kelgan. Metod – pedagogik jarayon elementi sifatida mazmun maqsadlarga maksimal mos kelishi kerak, ana shunda – tarbiya, o’qish, o’rganish amalga oshadi. Metodning asosiy vazifasi – qobiliyatni rivojlantirish. Kasbiy faoliyatda metodning asosiy ko’rsatkichi – uning kasbiy faoliyat vositalariga mosligidadir.

**METODOLOGIYa**– metod va logiya iboralarining birligida bilish faoliyati usuli, tuzilishi vositalari va mantiqiy tartibi haqidagi ta’limot mahnosini anglatadi. Demak, metodologiya har qanday faoliyatning zaruriy tashkiliy komponentidir.

Metodologik bilimlar, eng avvalo, muayyan faoliyat turlarining mazmuni va izchilligini o’ziga qamrab olib, odat hamda me’yorlar shaklida,ikkinchidan, amalda bajariladigan faoliyatning tahsiri sifatida yuzaga chiqadi. Har ikkala holda ham bilimning asosiy vazifasi bilish jarayonini tartibli ravishda amalga oshirish yoki biror obhektni amaliy o’zgartirishdan iborat.

**TA’LIMIY KENGLIK** – ta’lim jarayonlari amalga oshiradigan, yahni tashqi atrof – muhit bilan o’zaro harakat anglanadigan va amalga oshiriladigan kenglik.

Pedagogik jarayonda ta’limiy kenglikning son va sifat jihatdan tavsifi asosan pedagogga, uning ichki madaniyati, dunyoqarashi, qarashlariga bog’liq bo’ladi. SHuning uchun ham pedagogning professional tayyorgarligi nafaqat aniq mazmunni egallashga, balki, ekologik madaniyat, Ma’naviyat, umumiy madaniyatni shakllantirishga yo’naltirilgan taqdirda maqsadga muvofiq bo’ladi.

Tashqi va ichki ta’limiy kenglik kasbiy faoliyatning ahamiyati bugungi kun ta’limining eng dolzarb muammolaridandir.

**BILIM-** bir butunlikni tashkil qiluvchi qismlar orasidagi ularning ichki zaruriyatidan kelib chiqqan bog’liqlikdir. Uni qonuniyat deb ham yuritiladi. CHunki bu zaruriy bog’liqlik narsa va hodisalarning tabiatidan kelib chiqib, bizning ixtiyorimizdan tashqari o’zi mavjud. Uni o’zgartirib bo’lmaydi. Bilim kishidan kishiga mahlumot (axborot) orqali o’tadi.

**KO’NIKMA VA MALAKALAR.** Ko’nikma va malakalar deganda biror shaxsning muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishi uchun shart-sharoitlar yaratib beruvchi, tashqaridan kuzatish mumkin bo’lgan harakatlari va reaktsiyalari tushuniladi. **Malakalar** ongli ravishda amalga oshirilgan faoliyatning tarkibiy qismiga kiruvchi avtomatik tarzda yuzberadigan harakatlardir.



**MALAKA-** kishi egallagan bilimlari ko’nikma bosqichidan o’tib, doimiy harakat turiga aylanishi, mahorati hosil qilishi.

**MAHORAT-** o’zlashtirilgan bilimlar va hayotiy tajribalar asosida barcha amaliy harakatlarni (shu jumladan dars berishni) kam kuch va kam vaqt sarflab bajarish.

**BAXOLASH-** ta'lim jarayonining mahlum boskichida ukuv maksadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida ulchash, natijalarni aniklash va taxlil kilishdan iborat jarayondir.

**KASB-** muayyan bilim va mahorat talab etadigan mehnat faoliyati turi. Kasb-hunar sirlarini egallashga umumiy hamda maxsus mahlumot hamda amaliy ish-harakat usullarini o'zlashtirish orqali erishiladi.

Kasb o'ziga mehnat faoliyatining tor doirasi bilan xarakterlanuvchi ixtisosliklarni mujassamlashtiradi. Bahzi kasblarda bir qancha ixtisosliklar mavjud bo'lishi mumkin. Masalan, o'qituvchilik kasbi o'qitiladigan o'quv predmetlariga binoan: umumta'lim, umumtexnik, maxsus fanlar o'qituvchisi bo'lishini ko'rsatishi o'zi kifoya. Kasb va ixtisos shaxsning muntazam ravishda mahlum turdagi ish bilan shug'ullanishini ifodalaydi. Respublikamiz fuqarolariga kasb va ixtisos tanlashlariga keng imkoniyatlar yaratilgan.

## Adabiyotlar

1. K.T.Olimov, O.A.Abdukuddusov, L.P.Uzokova, M.M.Axmedjonov, D.F.Jalolova. Kasb ta'limi uslubiyoti. Toshkent, 2006.
2. S.Ya. Batqshev. Professionalg'naya pedagogika. "Professionalg'naya obrazovanie". Moskva. 1997. 511 s.
3. Ilg'or pedagogik texnologiya: Nazariya va amaliyot "Ma'naviyat asoslari" darsi asosida ishlangan uslubiy qo'llanma. "Abu Ali ibn Sino". Toshkent. 2001. - 80 b.

**Mavzu: O’zbekiston Resrublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturining o’ziga xosligi**
**Режа:**

1.Milliy dasturning maqsad va vazifalari. 2.Milliy dasturni amalaga oshirish bosqichlari.

3.Milliy modelning tarkibiy qismlari.
4.Milliy dasturni amalga oshirishning asosiy tashkiliy chora-tadbirlari.

O’zbekiston zaminida ijtimoiy siyosiy davrda milliy o’zlikni anglash, milliy va umumbashariy qadriyatlarni o’zlashtirish orqali shaxs bilan jamiyat o’rtasida uyg’unlikni vujudga keltirish, ehtiyojlarning xususiylikdan umumiylikka o’tib berishi jarayonida voyaga yetayotgan yoshlarning qobiliyatlari, ichki imkoniyatlarini rivojlantirish davr talabi ekanligini etirof etish lozimdir.

Insonshunoslik fanida inson - jamiyat, jamiyat – inson shaklida o’zaro tahsirni taqozo etar ekan, birinchi va ikkinchisi ham to’g’ri, ham teskari aloqani o’rnatishi joiz. Abdulla Avloniy o’z davrida bashorat qilganidek: “Agar pedagogika insonni xar tomonlama tarbiyalashni hohlar ekan, unda insonni xar tomonlama o’rganishi zarurdir.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov: “Aql-zakovatli, yuksak Ma’naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo’ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi ”, - degan fikri ta’lim va maorifni yuksaltirish, milliy g’oyani ro’yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri ekanligini ko’rsatadi.

Bu ulug’vor vaziflarni amalga oshirish uchun Respublika Oliy Majlisining 1997 yil 29 - avgustdagi IX sessiyasida, qonuniy zamin bo’lgan “Ta’lim to’g’risida”gi qonun, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” qabul qilindi.

O’zbekiston Respublikasi “Ta’lim to’grisidagi qonun”ining qabul qilinishiga bir qator omillar sabab bo’ldi:

1. Mamlakatimizda ijtimoiy tuzum o’zgardi.
2. Ijtimoiy ishlab chiqarish va mulkka bo’lgan munosabat o’zgardi.
3. Eski mafkuraviy qarashlar javob bermay qoldi.
4. Ta’lim muassasalarida olib borilayotgan tadbirlar jahon andozalariga mos ravishda tashkil qilinish lozim bo’ldi.
5. Talabalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar his-tuyg’ularini singdirib, ularni xar tomonlama barkamol, chuqur bilimga ega mutaxassis etib tayyorlashni taqozo etdi.

Milliy dasturning maqsad va vazifalari bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Har bir bosqichda muayyan vazifalarning hal etilishi nazarda tutiladi. Ushbu vazifalar quyidagilardan iboratdir:

**Milliy dasturni ruyobga chiqarish bosqichlari.**

**1.** 1997-2001 yillar bu bosqichda ta’lim qonuni asosida ta’lim tizimi va mazmuni qayta ko’rildi. DTS yaratildi.

**2.** 2001-2005 yillarni o’z ichiga olib milliy dasturni to’liq ro’yobga chiqarish rejalashtirildi va sifat bosqichi deb nomlandi.

**3.** 2005 va undan keyingi yillarni o’z ichiga qamrab olgan. Bu davrda ta’lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalari yanada mustahkamlanishi, o’quv-tarbiya

jarayoni yangi o’quv - uslubiy majmualar, ilg’or pedagogik texnalogiyalar bilan to’liq tahminlanishi, milliy (elita) oliy ta’lim muassasalari qaror topishi ko’zda tutilgan.

Birinchi bosqich (1997—2001 -yillar) mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy-uslubiy, moliyaviy shart-sharoitlarni yaratish.

Ikkinchi bosqich (2001 —2005-yillar) - Milliy dasturni to’liq ro’yobga chiqarish, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritish. Bu bosqichda, shuningdek, ta’lim muassasalarini maxsus tayyorlangan malakali pedagog kadrlar bilan to’ldirish tahminlanadi, ularning faoliyatida raqobatga asoslangan muhit vujudga keltiriladi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» maqsadini ro’yobga chiqarishning ikkinchi bosqichida ta’lim muassasalarining moddiy-texnika va axborot bazasini mustahkamlash davom ettiriladi, o’quv-tarbiya jarayonining yuqori sifatli.o’quv adabiyotlari va ilg’or pedagogik texnologiyalar bilan tahminlash, uzluksiz ta’lim tizimini axborot lashtirish vazifalarining ham hal etilishiga alohida urg’u beriladi.

Uchinchi bosqich (2005 va undan keyingi yillar) to’plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish. Bu bosqichda, yana shuningdek,

— ta’lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalarini yanada mustahkamlash;

— o’quv – tarbiya jarayoni yangi o’quv-uslubiy majmualar, ilg’or pedagogik texnologiyalar bilan to’liq tahminlanishi;

milliy (elita) oliy ta’lim muassasalarini qaror toptirish va rivojlantirish;

ta’lim jarayonini axborotlashtirish, uzluksiz ta’lim tizimi jahon axborot tarmog’iga ulanadigan kompyug’ter axborot tarmog’i bilan to’liqqamrab olinishiga erishish kabi vazifalarning ham ijobiy yechimi tahminlanadi.

O’zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» tarkibiy tuzilmasi quyidagicha aks etadi

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy, tarkibiy qismlari.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli faqat ta’lim-tarbiya jarayoninigina qamrab olmay, ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlarni ham o’z ichiga oladi.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta’lim, fan va ishlab chiqarish kabi tarkibiy qismlarning o’zaro hamkorligi, ular o’rtasidagi o’zaro aloqadorlik asosida «yuksak mahnaviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tayyorlash Milliy tizimi» mohiyatini aks ettiruvchi andoza, loyiha hisoblanadi (2-chizma):

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning asosida kadrlar tayyorlash milliy modeli va uning mohiyati yoritiladi. Milliy modelning o’ziga xos xususiyati mustaqil ravishda to’qqiz yillik umumiy o’rta hamda uch yillik o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limining joriy etilishi bilan belgilanadi. Bu esa o’z navbatida umumiy ta’lim dasturlaridan o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi dasturlariga o’tilishiga zamin yaratadi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iboratdir:



1. SHaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh subekti va obekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning istehmolchisi va ularni amalga oshiruvchidir.

SHaxs uzluksiz ta'lim jarayonida dunyoviy, ilmiy bilimlarni o'zlashtiradi, fan asoslarini puxta egallaydi, ishlab chiqarish sohalari bilan tanishadi, shuningdek, o'zida ijtimoiy tahsirlar yordamida mahnaviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalab boradi. SHaxsda o'zlashtirilgan bilim, faoliyat ko'nikmalari va hayotiy tajriba asosida kasbiy mahorat ham shakllanib boradi. Yuksak mahnaviy-axloqiy sifatlar va yuqori darajadagi kasbiy malakaga ega bo'lish uchun shaxs o'z oldiga muayyan maqsadni qo'ya olishi hamda unga erishish yo'lida tinimsiz izlanishi, o'qib-o'rganishi lozim. SHundagina u ijtimoiy raqobatga chidamli, malakali kadr bo'lib shakllanadi.

O'z-o'zini anglash tuyg'usiga ega bo'lish, ta'lim sohasidagi xizmatlardan to'laqonli, samarali foydalana olish, ilmiy va kasbiy bilimlarni puxta o'zlashtirishga erishish shaxsga yetuk mutaxassis bo'la olishi uchun poydevor yaratadi. Inson kamoloti, eng avvalo, uning o'ziga bog'liqdir. SHu bois milliy dasturda shaxs va uning kamolotini shakllantirishga alohida ehtibor qaratilgan.

«Ta'lim xizmatlarining istehmolchisi sifatida shaxsga davlat ta'limini olish va kasb-hunar tayyorgarligidan o'tish kafolatlanadi. Ta'lim olish jarayonida shaxs davlat ta'lim standartlarida ifoda etilgan talablarni bajarishi shart.

SHaxs ta'lim xizmatlarining yaratuvchisi sifatida tegishli malaka darajasini olgach, ta'lim, moddiy ishlab chiqarish, fan, madaniyat va xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatadi va o'z bilimi hamda tajribasini o'rgatishda ishtirok etadi».

2. Davlat va jamiyat ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillaridir.

SHaxs kamoloti nafaqat o'zi uchun, balki davlat va jamiyat taraqqiyoti, ravnaqi uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Binobarin, fuqarolari yuksak Ma'naviyatga ega jamiyat har tomonlama taraqqiy eta oladi.

SHaxs va davlat (jamiyat) o'rtasidagi aloqa ikki tomonlama xususiyatga ega. SHu bois har qanday davlat (jamiyat) o'z fuqarolarining yashashi, mehnat qilishi, iqtidori va salohiyatini ro'yobga chiqarishi, uni namoyon eta olishi uchun yetarli darajada shart-sharoit yaratib bera olishi lozim. Respublika ta'lim tizimida davlat va jamiyat shaxsning har tomonlama shakllanishi, o'zligini namoyon eta olishi uchun yetarli darajada shart-sharoit yaratib berish mashuliyatini o'z zimmasiga oluvchi subekt sifatida namoyon boiadi.

Davlat va jamiyat ta'lim muassasalarining yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash yo'lidagi faoliyatini ham uyg'unlashtiradi hamda quyidagilarga kafolat beradi:

fuqarolarning bilim olish, kasb tanlash va o'z malakasini oshirish huquqlarining ro'yobga chiqarilishiga;

majburiy umumiy o'rta ta'lim hamda akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida ta'lim olish yo'nalishini tanlash huquqi asosida majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini olishga;

davlat grantlari yoki pulli-shartnomaviy asosda oliy ta'lim va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni olish huquqiga;

davlat ta'lim muassasalarini mablag' bilan tahminlashga;

obhektiv olam bilan muayyan munosabatlarini uzida ifodalaydi. U har bir o'quv predmetini tegishli fan asoslari sifatida talqin etib, uzi uchun "yadro" va "uzak" hisoblangan mahlumotlarga ega buladi hamda ushbu mahlumotlarning shaxs tomonidan uzlashtirilishi, uning anik soha buyicha bilim, kunikma, malaka va shaxsiy fazilatlarga ega bulishida tayanch bulib xizmat kiladi. Ukuv materialiga bunday yondashuv axborotlarning shiddatli okimi sharoitida pedagogik jarayonni makbullashtirish (Yu.K. Babanskiy., M.M. Potapshik), jadallashtirish (R.X. Juraev, F. Yuzlikaev, V.F. SHatalov, N.G. Dayri, M.I. Maxmutov) asosiy ukuv materialini mukammal uzlashtirishga imkon beradi

3. Insonparvarlashtirish printsipi - pedagogik amaliyotda insoniylashtirish bilan birgalikda kullaniladi. Bu har ikki tushuncha ham lugaviy jihatdan yunoncha "humanus" insoniylik va "humanitas" insoniyat suzidan olinib, bir uzakka ega bulsada, ularning boshka-boshka mahnolar anglatishi olimlar tomonidan ehtirof etilgan.

Insonparvarlashtirish ta'lim muassasalarida urganiladigan ukuv predmetlari mazmuniga inson omili, uning kadr qimmati, shani, or-nomusi, hukuq va burchlarini hurmatlash goyalarini singdirish zarurligini nazarda tutadi.

Insoniylashtirish printsipi - obhektiv olamdagi barcha nehmatlar, shart- sharoit inson kamoloti, kishilik jamiyati farovonligi, tinchligi uchun xizmat qilish(shartligi) haqidagi g'oyani ilgari suradi. Mazkur g'oya, hozirgi zamon va istiqbol talablari pedagogik jarayonga yakka hokimlik (avtoritar) tarzida yondoshmay, balki uni ishtirokchilarning hamkorligi asosida tashkil etib amalga oshirish zarurligini asoslaydi.

4. Uzluksizlik printsipi - fan-texnika taraqqiyoti, ilgor ishlab chiqarish texnologiyalarini amaliyotga keng kulamda qullash hozirgi zamon va istiqbolda mustaqil ravishda ijodiy faoliyat kursatish uchun shaxsga uning butun umri uchun yetarli bulgan bilim, xatti-xarakat usullari va shaxsiy fazilatlarni belgilangan vaqt davomida berish mumkin bulmay, balki u butun xayoti davomida takomillashtirilib borishini nazarda tutadi. Mazkur printsip uqituvchidan ta'lim-tarbiya ishida ukuvchilarning mustakilligini tahminlash uchun kerakli shart-sharoit yaratishni talab qiladi.

5. Nazariyaning amaliyot (hayot) bilan bogliqliq printsipi - uquvchilar uzlashtirgan bilimlari ularning bevosita hayot faoliyatida qullangan yoki unda dasturulamal bulib xizmat kilgandagina ahamiyatli ekanligiga ishora qiladi. Amaliyotda kullanmagan bilimlar asossiz bulib, qisqa vaqt davomida unutiladi. Bunda bilim, kunikma va malakalar mahlum tartibda shakllantirilib, amalda kullanilishi kuzda tutiladi.

6. Ta’limning ilmiylik printsipi. Bizni qurshab turgan olamni bilish jarayoni murakkab va ziddiyatli. Ilmiy bilish hodisadan moxiyatga, narsaning tashqi tahsiridan uning ichki tuzilishini tasvirlashga utishdan iboratdir. Agar uquv materiali ukuvchini qonunlar, tushunchalar, formulalar va teoremalar olami bilan tanishtirsa, bunday bilimlar ilmiy bilimlar deb ataladi. Ular aqliy rivojlanish uchun yetakchi axamiyatga egadir. Faqat ana shunday bilimlargina ukuv predmetining ilmiy mohiyatini anglab yetishga, kelgusida esa fan asoslarini chuqurroq egallab, mehnatda faol ishtirok etishga, sabab-okibat munosabatlarini uzviy boglsh^ anglanishiga imkon beradi.

7. Tushunarlilik printsipi. Bilimlarvpi uzlashtirishning osonligi, malaka va kunikmalarning hosil qilinishi ukuvchilarning rivojlanish darajasi, shaxsiy tajribasi bilan aloqasini kursatadi. Agar bunday alokalarni anshutab bulmasa, bilimlar tushunarli deb hisoblanmaydi.

Olamda barcha narsalar uzaro bir-biriga bogliq, barcha narsalar hodisalar urtasida aloka mavjud. SHuning uchun barcha ilmlar, barcha uquv predmetlari uzaro bir-biri bilan boglivdir. Ukuvchi uzlashtiradigan bilimlar insoniyat tajribasining bir zarrachasi hsoblanadi va shuning uchun ham yangi bilimlarni mavjud bilimlar bilan hamisha boglash mumkin.

8. Ta’limning ko’rgazmalilik printsipi. Kishilik jamiyati rivojlanishining ilk bosqichlarida uqitish bolalarning katta avlodga taqlid qilishlari, katta yoshdagi kishi bajargan amaliy xatti-harakatlarni qaytarish hisobiga olib borilardi. Uqitishning bu sodda shakli ishonarli va samarali bulganligi tufayli hozirgi kungacha saklanib qoldi. XVII asrda Ya.A. Komenskiy kurgazmalilik tamoyilini har qanday tarzdagi o’qitishning muvaffakiyatli bulishi negizi sifatida tahrifladi. I.G. Pestalotstsi bu tamoyilni uqitishning asosiy vositasiga aylantirdi. Bu printsipga amal qilinganda eshitish organlari bilan bir qatorda ko’rish organlari jalb etiladi. SHuning uchun ham xalqimizda “Yuz marta eshitgandan ko’ra bir marta kurgan mahkul" degan maqol urinli kullaniladi. Ko’rgazmalilik zarur bulgan joyda me’yorida ishlatilsa samara beradi, me’yor buzilganda esa ukuvchilarning fikri asosiy materialdan yiroqlashadi. Ularning tafakkur doirasi torayadi, aksincha ko’rgazmalilik kerakli joyda urinli kullanilsa uzlashtirilgan bilim, kunikma va malakalar uquvchilar xotirasida uzoq vaqt davomida saklanadi.

Ko’rgazmalilik tamoyilining hozirgi izohi kuyidagi asosiy qoidalarni uz ichiga oladi:

1. Kurgazmalilik deganda ukuvchining hissiy bilishini tashkil kilish tushuniladi.

2. Kurgazmali kurollardan foydalanish ukuv jarayonida hissiy bilishni tashkil etishning bir jihati xisoblanadi.

9. Ta’limning onglilik va faollik printsipi. Bu printsip ukuvchilarning ukuv-bilish faoliyatiga psixologik jixatdan asos kilib olingan qoida sifatida kuyidagi uchta muxim jixatni: ukuvchilar

tomonidan ukuv materialining ongli ravishda tushunilishini, ukuv mashgulotlariga ongli munosabatda bulishni, bilish faoliyatining shakllanishini uz ichiga oladi.

10. Ta’limning puxtalik printsipi. Uquv materialini uzlashtirishning puxtaligi kupgina omillarga: tushuntirishning ilmiyligi va tizimliligiga, tushunishning ongliligiga; ukuvchilarning bilish faolligiga, uqish sabablariga, uqituvchining mahorati va shu kabilarga bogliq.

11. Tarixiylik printsipi. Ukuv materialini bayon qilishda tarixiy materiallardan foydalanish asosida mashgulotlarni tashkil etishni nazarda tutadi. Ta’lim jarayonida tarixiylik printsipiga amal qilinsa dasturiy material boyitiladi, yangisi bilan boglanadi, istiqbolda urganiladiganlariga ishora kilinadi va uni puxta uzlashtirishga imkon yaratiladi. SHu yul bilan gahlimdagi ketma-ketlikni ifoda etish imkoniyati tutiladi, natijada uzlashtirilgan bilim, xatti-xarakat usullarini yaxlitligi tahminlanadi.

12. Ta’limni individuallashtirish printsipi. Bir ukuvchi umumiy xislatlaridan tashqari individual xislatlarga ham egadir. Ukuvchining bilishi, irodasi, hissiyotiga oid xususiyati, shaxsiy xislatlari ta’limning borishiga ijobiy yoki salbiy tahsir kursatishi yoki betaraf qolishi mumkin. Ukuvchilarning individual xususiyatlarini ehtiborga olgan xolda mashgulot (dars) jarayonini tashkil qilish - ukitishni individuallashtirish deb yuritiladi.

Kasb-xunar pedagogikasida kasbiy ta’limning uziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi xususiy printsiplar qullaniladi. Bu printsiplar umumiy didaktik printsiplar bilan bevosita aloqador bulib, ta’lim-tarbiya jarayoniga kuyilgan talablar va u amal qilishi lozim bulgan qonuniyatlarni ifodalaydi.

13. Kasbiy mobillik printsipi - insonni tez fursat ichida hayotga tatbik etilayotgan yangi texnika va samarali texnologiyalarni uzlashtirish qobiliyatini ko’zda tutadi. Mexnatning tezkor moslashuvchanligi, ijodiy tavsifi bevosita inson dunyoqarashi, bilimlar ko’lamining kengligi, kasbiy faoliyatda uchraydigan muammolarning yechimini tezkorlik bilan topishiga bogliq psixolog olim L.S. Vqgotskiy iborasi bilan aytganda "Amaliyotda ilgari yurib, u uchun yul ochib beradigan ta’lim yaxshi hisoblanadi". SHuning uchun ham bugungi uquvchi nimani bilishiga emas, balki nimani uddalay olishi va ertangi kunda nimalarga qodir bulishi mumkinligiga axamiyat bermok zarur.



14. Kasbiy ta’limning modullilik printsipi modulli ta’limning moxiyati shundan iboratki, uquvchi uziga berilgan axborotlar balki va metodik ko’rsatmalardan iborat shaxsiy ukuv dasturiga asoslanib mustaqil holda didaktik maqsadga erishadi. Modulli ta’lim maqsadi mazmuni va tashkil etish metodikasi kuyidagilarni aniqlashga imkon beradi: ta’lim mazmunan uziga xos, dinamik uzgaruvchan va tezkor bilimlarni ajratib olish; dasturning variativ xarakteriga

ega; ijtimoiy buyurtmaga binoan mazmun uzgaradi. Modulli ta’limdan foydalanish uquv materiallarini, yahni uning bilimlari printsipini tuzishga imkon beradi. Bu, uz navbatida, yaxlitligini saqlab kolgan xolda mazmunni uzgartirish, unga kushimcha kiritish imkonini beradi.

Modullilik printsipini amalga joriy etish kuyidagilarni tahminlaydi:

- subhekt maqsadlarga erishish uchun barcha faoliyat kurinishlarini integratsiyalashga va muntazam ravishda subhekt maqsadlariga yetishish borasida muqobil yechimlarni izlashga;
- istiqbolda subhektni kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishga yunaltirishga;
- modullar xayotning barcha sohalaridagi, shu jumladan fan-texnika, texnologiyalardan uzgarishlarni tezkorlik bilan hisobga olish imkoniyatini beradi.

15. Kulay muxit hosil kilish printsipi - eng avvalo mehnat va xayot xavfsizligi, moddiy-texnik va o’quv uslubiy negiz, texnik, texnologik, ergonomik, iqtisodiy, pedagogik, sanitariya-gigiena, ekologik va shu kabi talablarga amal qilishni kuzda tutadi. Bunday muhitni hosil qilish kuyidagicha ijtimoiy, psixologik, pedagogik tizimlarni ishlab chiqish va amalga joriy etishni talab etadi.

Me’yoriy mexnat sharoitini yaratish, pedagogik tahsirni maqbullashtirish tizimi.

16. Politexnik printsip - zamonaviy texnik va ishlab chiqarish texnologiyalarini umumiy asoslari bilan tanishtirish, tizimli bilim hosil qilish demakdir. Politexnik printsipni amalga oshirish kuyidagi shart- sharoitga amal qilishni talab etadi.

ta’lim-tarbiya mazmunining fan-texnika taraqqiyoti asosiy yunalishlariga mosligi;

- uquv materialini uzaro aloqador yaxlit bilimlar shaklida tashkil etish;
- urganilayotgan materialni bulajak kasbiy faoliyat bilan boglash;
- ukuv materialining uquvchilar yoshi va individual xususiyatiga mosligi;
- uquvchilarning bilishga qiziqishlarini qondirish imkoniyatlari;
- tayanch umumilmiy bilimlar va kunikmalarga tayanish;
- ta’lim mazmunining moddiy-texnik bazaga mosligi;
- ishlab chiqarish mehnatiga tahsir etuvchi omillarning xisobga olinishi;

17. Ta’limni ishlab chiqarish mexnati bilan qo’shib olib borishprintsipi. Nazariy ta’lim bilan amaliyotning bogliklik printsipi. Nazariya va amaliyotning aloqadorligi ikki tomonlama jarayon. Ular bir-biri bilan organik alokador. Bu printsipning amalga oshirilishi kuyidagi shart-sharoitlarga amal qilinishiga bogliq:

Nazariy bilimlar amaliyotga nisbatan ilgarilab borishi, amaliy mashgulotlarda uning tugriligi tekshirilishi lozim.

Xar qanday mehnat jarayonida turli soha bilimlari va malakalari sintezlanishi zarur.

Malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirish uchun soha bilimlari sintezlanishi lozim. SHu jixatdan ta’lim mazmunini integratsiyalash kuyidagi ikki yunalishda amalga oshiriliish kerak: birinchidan, yagona predmet doirasida kasbiy bilim va malakalarni birlashtirish, ikkinchidan, maxsus bilim va malakalarning uzaro aloqadorligi gorizontal yunaliishda.

18. Ukuv jarayonida kasbiy faoliyatni modellashtirish printsipi

19. Iqtisodiy maqsadga muvofiqlik printsipi - ta’lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlashning maqsadga muvofiqligi, ularga bulgan davlat va jamiyat talab hamda ehtiyojlarining maqbul qondirilishini kuzda tutadi

20. Ta’limda predmetlararo bogliqlik printsipi: ta’lim muassasalarida o’tilayotgan umumta’lim, maxsus va kasbiy turkum ukuv predmetlari boshqa ukuv predmetlari bilan uzaro boglik xolda olib borilishi lozim. Bunda ukuv predmetdagi mavzular takrorlanmasdan, balki bir-birini tuldirib boradi.

21. Reduktsiyalash printsipi . - fan-texnika tarakqiyoti, ilgor ishlab chiqarish texnologiyalarining amaliyotga keng kulam va tezkorlikda joriy etilishi bilan bevosita bogliq bulgan axborotlarning shiddatli oqimi sharoitida o’quv materialini imkoni boricha qisqartirish, yahni eng muhim tizim hosil kiluvchi qismini ajratib olishni kuzda tutadi. Bu kisqartirish Davlat ta’lim standarti orqali belgilangan mazmunning yetarli va zarur darajasiga uzining salbiy tahsirini kursatmasligi zarur.

22. Refleksivlik printsipi - subhektning uz shaxsiy faoliyatiga, uzlashtirgan xayotiy tajribasiga baxo berishi, uzgalarning u haqidagi fikrlari va ular bilan hamkorlik muloqoti va munosabatlarini tavsiflaydi.

23. Maqbullik printsipi - pedagogik shart-sharoitlarning kulayligi, mavjud imkoniyatning hisobga olinishi, oz vaqt, mablag va zo’riqish kuchlari sarflash evaziga samarali natijalarga erishishni tavsiflaydi.

24. Ta’lim-tarbiya jarayonida tabiiy rivojlanish va ijtimoiylashuv printsipi - tabiiy jarayonlar moxiyatini bilish ta’lim-tarbiya jarayonini samarali, xususan uquvchilarning yosh xususiyatlari, senzitiv rivojlanish  davrlari, rivojlanishning keyingi bosqichlariga utish imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etishni ko’zda tutadi. Bir so’z bilan aytganda,ta’lim-tarbiyani ijtimoiylashtirish, uquvchilar tomonidai ijtimoiy tajribaning individual qonuniyatlar asosida uzlashtirilishini kursatadi.

25. Ijtimoiy-iqtisodiy tahminot printsipi - pedagogik jarayonning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini nazarda tutib, barcha turdagi ta’lim muassasalari faoliyatini bu jarayon

ishtirokchilari imkoniyatlari, davlat va jamiyat talablari, fan taraqqiyoti, ishlab chiqarish ehtiyojlarini hisobga olish, ularni uygunlashtirish, integratsiyalashtirishni kuzda tutadi.

26. Muntazamlilik printsipi. Uzluksiz ta'lim tizimining bug'inlari orasida, davlat talablari va davlat ta'lim standartlari, ukuv rejalari, uquv predmetlari dasturlari orasida mahlum ketma-ketlikka amal qilishni kuzda tutadi. Muntazamlilik obhektlar, jarayonlar, hodisalar, tushunchalar, dalillar orasidagi ichki alokalar, nazariy qoidalar bilan amaliy ishlarni bajarish urtasidagi mantiqiy bogliqliklarni urnatish orqali amalga oshiriladi. Bu printsip urganilayotgan materialdan yetakchi goyalar, tushunchalar, qoidalarni aniqlash, ularning boshqa tushunchalar bilan aloqalarini o'rnatish, ta'limdagi bahzi bir umumiy qonunlarnn yoritib berish uchun ular rivojlanishining manbai hisoblanadi. Muntazamlilik printsipi amalga oshirilayotganda albatta, uzviy, predmetlararo, uzaro alokalarni kuzda tutish muhimdir.

27. Ta'lim mazmunining barkarorligi va dinamik uzgaruvchanligi printsipi. Kasb-hunar ta'limida mahlum ukuv materiali uzoq vaqtlar davomida uzgarmasdan kolishi va fan-texnika tarakkiyoti, ishlab-chikarish"texnologiyalari, madaniyat, globallashuv kabilarga kura mahlum ukuv materiali muntazam ravishda takomillashib borishini kuzda tutadi.

Ta'lim-tarbiya printsiplari kuplab pedagoglar tomonidan tadkiq

etilgan, lekin u tugallanmagan, tugallanishi mumkin bulmagan tizimdir.

(ilovata karang).

Xulosa kilib aytganda, kasb-xunar ta'limi pedagogikasida kasbiy ta'limning uziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi xususiy printsiplar kullaniladi. Bu printsiplar umumiy didaktik printsiplar bilan bevosita alokador bulib, ta'lim-tarbiya jarayoniga kuyilgan talablar va u amal kilishi lozim bulgan qonuniyatlarni ifodalaydi.

## Adabiyotlar ro'yxati:


1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: Sharq, 1998. 63 b.

2. Abdiquddusov.O., Rashidov. H. Kasb-hunar ta`limi pedagogikasi. O'quv qo'llanma. O'MKHTTKMO va UQT instituti, T. – 2009. 120 b.

3. Olimov Q.T., Abduqudusov O. va boshqalar. Kasb ta'limi uslubiyoti. - T.: "Moliya" nashiriyoti, 2006. – 160 b.

4. Shari'ov Sh. va b. Kasbiy pedagogika (metodik qo'llanma). -T.:TD'U, 2006 y.

5. Nishonaliev U.N., Toli'ov O'.Q., Shari'ov Sh.S. Kasbiy ta`lim pedagogikasi. O'quv qo'llanma. –T.: TD'U, 2007-388 b.

## Mavzu: Kasbiy ta'limi jarayoning ishtirokchilari

1. Pedagogik jarayon mohiyati va tuzilmasi.
2. Kasbiy ta'lim tamoyillari.
3. Pedagogik jarayonni loyihalash.

**Kasb-hunar ta'limi jarayonining ishtirokchilari**

Ma'lumki, xar qanday ta'lim-tarbiya ishida, shuningdek, kasb-xunar ta'limida uqituvchi va ukuvchilar ushbu jarayonning bevosita ishtirokchilari hisoblanadilar. Bu ishtirokchilarning uzaro hamkorligi natijasida, ya'ni ularning uzaro ta'sir, muloqot va munosabatlari tufayli ta'lim-tarbiya jarayoni amalga oshadi.

Ma'lumki, kasb-hunar kollejlariga ukuvchilar umumiy o'rta ta'lim maktablarining to'qqizinchi sinflarini bitirganlar safidan qabul kilinadi. Odatda ularning yoshi 15-18 larda bulib, uziga xos xususiyatlarga ega buladilar. Vatandoshimiz yetuk psixolog olim E.Goziev va uning maslakdoshlari fikricha bu yoshdagi uspirinlar kuyidagi xususiyatlarga ega buladilar:

-jismoniy barkamollikning ifodalanishi;

- ruhiy jixatdan muayyan kursatkichga erishilganligi;
- xulq, faoliyat va muomala jarayonlarida individuallikning shakllanishi;
- e'tiqod, dunyoqarash va pozitsiyada barqarorlikning mavjudligi;
- bilim, kunikma va malakalarni egallashda individuallik;
- faoliyatga oid individual uslubning paydo bulishi;
- kasbiy motivatsiyaning ustuvorligi;
- ma'naviy ehtiyoj, barkaror kiziqishning qat'iyan yetakchiligi;

-mutakassislikka munosabatning shaxsiy pozitsiyaga buysundirilganligi;

- kollej va oliy maktab muxiti uziga xosligining ular shaxsiyatida ifodalanishi;
- amaliyot va muxitga moslashishning sifat jihatidan tafovutlanishi.

Yosh fiziologiyasi va psixologiyasi fani xulosalari kasb-xunar

kollejlarida ukuvchilar uz xulqi va ukuv-bilish faoliyatini boshkara olmasligini ko'rsatadi. Bundan kasbiy ta'lim jarayonida ukituvchining urni muxim ekanligi kelib chiqadi.

Pedagogik jarayonning moxiyati unda ishtirok etuvchi uqituvchi va ukuvchilarning uzaro xamkorlik faoliyati mazmunida uz ifodasini topadi. Bunda ukituvchining faoliyati ukuvchilarni yunaltirish, safarbar etishdan iborat bulib, ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalar bilan belgilanadi, ukituvchi ukuv materialini uquvchining ongiga yetkazish uchun eng avvalo nutq (suz)dan, shuningdek, shart-sharoit, vaziyat, shakl, metod, vositalaridan foydalanadi.

Kasb-xunar kollejlarida pedagogik jarayonni tashkil etish, amalga oshirish va natijalarini nazorat qilishda faqat o'qituvchi emas, balki muhandis-pedagog, tajribali mutaxassis kabilar ham ishgirok etishi mumkin. Lekin, boshqa o'qituvchilardan farqli ravishda kasb ta'limi uqituvchisi psixologik-pedagogik, sohaviy va ixtisoslik buyicha tayyorgarlikni uzida mujassamlashtiruvchi tizimli ma'lumot oladi.

1. Psixologik-pedagogik tayyorgarlik bitiruvchiga ukuv predmetini mustaqil ravishda loyihalashtirish, mazmunini tanlab olish va uni uqitish metodikasini ishlab chiqish malakalarini egallash imkoniyatini beradi.

2. Sohaviy tayyorgarlik esa ishlab chiqarish ta'limi va amaliyotini tashkil etish, amalga oshirishda rahbarlik qilish va natijalarini nazorat k:ilib baholash ishlarining mohiyatini anglab yetishga imkon beradi,

3. Kasb ta'limi uqituvchisi yoki muhandis-pedagoglarning lavozimiy vazifalari esa ixtisoslikka oid bilim, kunikma va malaka hamda shaxsiy fazilatlarni talab etadi.

Rosssiyalik olimlar Ye.I. Serkova va V.D. Simonenkolarning kursatishicha kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarlik tarkibiy qismlari orasidagi maqbul munosabatning 60 foizini sohaviy tayyorgarlik, 27 foizini psixologik-pedagogik tayyorgarlik va 13 foizini ixtisoslik buyicha tayyorgarlik tashkil etadi.

Xulosa urnida shuni qayd etish mumkinki, pedagogik jarayonning markazida uning teng nufuzli ishtirokchilari - uqituvchi va ukuvchilar turadi. Bu ishtirokchilarning birini ikkinchisiga nisbatan yuqori nufuzga ega deb e'tirof etish uziga xos bir yoqlamalikka olib keladi. Ular orasidagi ongli uzaro hamkorlik, uzaro muloqot, uzaro munosabat, ularning bir-biriga ko'rsatadigan aks ta'sirlarini hisobga olish zarur.

Kasb ta'limi uqituvchilarini tayyorlash buyicha ixtisoslik mazmuni bir- biridan 60 foizdan ortiq mikdorda farq qiladi. SHuning uchun ham oliy ta'lim tasniflagichiga mutaxassislikni sohalar buyicha turlashda alohida nom va kodlar kiritish talab etiladi.

Xozirgi paytda respublikamizda besh bosqichli kasbiy pedagogik ta'lim tizimi mavjud. Ular mazmuni va uqish muddatlariga kura bir-biridan farqlanadi.



Kasb ta'limi uqituvchisiga mehnat bozorida raqobatbardosh bulish talabi ularning kasbiy tayyorgarlik darajasining yuqori bulishiga ishoradir. SHu urinda ijtimoiy pedagogik shart-sharoit, muhit bir vaqtning uzida kasbiy pedagogik rivojlanishni talab etuvchi motiv va rag'bat bulib xizmat qilishini yodda tutish zarur.

Barcha turdagi ta'lim muassasalarida, shuningdek, kasb-hunar kollejlarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etuvchi, amalga oshiruvchi va uning natijalarini nazorat etib, baholovchi asosiy shaxs uqituvchi hisoblanadi. Uzbekiston Respublikasi "Ta'lim tugrisida"gi Qonunining 5-moddasida "Pedagogik faoliyat bilan shugullanish huquqi tegishli ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bulgap shaxslarga berilishi" ta'kidlangan. Bunda kasbiy tayyorgarlik tushunchasiga alohida e'tibor berish zarur. CHunki ma'lum ma'noda barcha odamlar ta'lim tarbiyaviy faoliyat bilan shug'ullanishadi, biroq faqat o'qituvchilargina kasbiy pedagogik shug'ullanadilar. Demak, uqituvchilar pedagogik konuniyatlar asosida faoliyat kursatib, uz burch va vazifalarini sifatli bajarishga javobgar shaxe hisoblanadilar. Xar bir ukuvchi, yosh avlod jamiyat va davlat taqdiri uchun javobgarlik xis - tuygulari uqituvchi vazifasini tavsiflaydi. Uqituvchi mehnatining bugungi natijasi bilan jamiyatimizning ertangi istiqboli bevosita bogliq. SHuning uchun ham "Barkamol avlod Uzbekiston taraqqiyotining poydevori"shiori Prezidentimiz tomonidan shakllantirilib, xalqimiz tomonidan e'tirof etilgan.

Sabr-toqat va kelajakka ishonch o'qituvchining muhim kasbiy fazilatidir. Kasb-xunar ta'limi ukituvchisining ishi juda murakkab kurinishdagi inson- inson; inson-texnika va texnologiya munosabatlariga tegishli. CHunki kasbiy pedagogik jarayon ishtirokchilari hamkorlik nuqtai nazaridan chegaralangan.

Pedagogik vazifa - kasbiy bilim va xatti-harakat usullarini qo'llash borasidagi faoliyatni amalga oshirishdir. Buning natijasi ularoq ukuvchi ta'lim oladi, tarbiyalanadi va ma'lum ma'noda rivojlanadi.

Uqituvchining bosh vazifasi ta'lim-tarbiya, shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini rejalashtirish, amalga oshirish, natijalarini nazorat etish hamda baholash hisoblanadi.

Zamonaviy o'qituvchi faoliyati uqitish emas, balki uqib-urganishga yunaltirish; tarbiyalash emas, balki tarbiyalash jarayonlarini boshqarishga qaratilgan. SHuning uchun ham pedagog-murabbiyni Suqrot - "fikrlar doyasi" deb atagan edi. Uqituvchi tayyor ma'lumotni yetkazishi emas, balki ukuvchilar ongida tushuncha, tasavvur, xulosa hosil kilishi zarur.

Uqituvchilar nima bilan shugullanishi va ular mehnatining uziga xos xususiyatlari kup sonli tadqiqotchilar tomonidan bayon etilgan. Ulardan biriga, ukituvchining bosh vazifasi pedagogik boshqaruvchilik, deb biluvchilarga e'tiborimizni qaratsak. Boshqaruv vazifasini aniklashtirish uchun "pedagogik loyiha" tushunchasidan foydalanamiz, "Pedagogik loyiha" deganda har qanday uylangan va oxiriga yetkazilgan uqituvchi faoliyati tushuniladi. Masalan, dars, mavzu yoki bilimni o'rganish, viktorina tashkil etish, ekologik ekspeditsiya uyushtirish va shu kabilar. Bu ishlarning barchasini uqituvchi bajaradi. Bunda boshkaruv k.anchalik uylab, sinchkovlik bilan

amalga oshirilsa, shuncha xatolarga kam yul quyiladi va natijada yuqori samaradorlikka erishiladi.

Pedagogning birinchi vazifasi loyihani shakllantirish davridanoq paydo buladi va u ma’lum maksadni kuzda tutadi. Ma’lumki, maqsad pedagogik faoliyatda muhim omil, bu jarayon ishtirokchilarini ma’lum ma’noda hamkorlikdan umumiy natijaga chorlaydi va yunaltiradi.

Boshqarish jarayonining mohiyati ishtirokchilar xatti-harakatlarini maqsadga erishish yulida muvofiqlashtirish minimum farqlarga yul quygan holda maksimal natijaga erishishdan iborat. Ta’lim-tarbiya ishida boshqarish, eng avvalo, ukuvchilarning bilimlariga asoslanadi; ularning tayyorgarlik darajasi, imkoniyatlari, tarbiyalanganligi, rivojlanishiga tashhislash asosida erishiladi. O’quvchilarning jismoniy o’ziga xos jihatlari va ruo’iy rivojlanganligi ularning aqliy va ahloqiy tarbiyalanganlik darajasi, yashash shart-sharoitlari kabilarni bilmasdan turib, gugri maqsad quyib unga erishish vositalarini tanlab ham bulmaydi. Bu muhim qoidani uz vaktida K.D. Ushinskiy paykab, "Pedagogika insonni barcha jihatlarda tarbiyalay olishi uchun uning barcha jihatlarini bilish zarur", - deb ta’kidlagan edi. Demak, uqituvchi pedagogik vaziyatlarni tashxislash va bashorat etish metodlarini mukammal bilishi kerak. U metodlar odatda ilmiy tadqiq etish metodlarini takrorlaydi. Bundan tashhislash bilan bashorat etishning uzviy bogliqligi kelib chiqadi. Uqituvchidan aniq shart-sharoitga asoslangan holda faoliyat natijalarini oldindan kura olish kobiliyati talab etiladi. Uzining faoliyati natijalarini oldindan kura olmagan pedagogii tavakkaliga ish kuradigan yulovchiga, ongsiz o’rgimchakka o’xshatish mumkin, xolos. Yukorida zikr etilgan fikrlarni muxtasar holda I.P. Podlasыy kuyidagicha jadval shaklida ifodalash mumkinligini ko’rsatdi (12-jadvalga karang).

12-jadval

Uqituvchi uzining xamkorlari, shart-sharoitini tashhislaydi xamda istiqbolni oldindan tasavvur etib, ta’lim-tarbiya faoliyatini loyihalashga kirishadi.

Uqituvchining loyihalovchilik vazifasi tula amalga oshiriladigan faoliyatning modelini kurishdan, ushbu shart-sharoit hamda ajratilgan vaqt

| Босқичлар | | Фаолият натижалари | | Вазифалари |
|---|---|---|---|---|
| Тайёргарлик кўриш ↓ | Б | Мақсадни белгилаш ↓ | Б | - мақсадни белгилаб олиш ; |
| | О | Ташҳислаш ↓ | О | - ташҳислаш; - башорат этиш; |
| | Ш | Башорат этиш ↓ | Ш | - лойиҳалаштириш; - режалаштириш; |
| Амалга ошириш ↓ | Қ | Лойиҳалаштириш ↓ | Қ | - ахборотлар йиғиш; - ташкил этиш; |
| | А | Ахборотларни йиғиш ↓ | А | - баҳолаш; - назорат қилиш; |
| | Р | Ташкил этиш ↓ | Р | - ўзгартиришлар киритиш; |
| Якунлаш | И | Амалга ошириш ↓ | И | - аналитик таҳлил этиш. |
| | Ш | Натижаларини назорат қилиш ва баҳолаш | Ш | |

omillari hisobga olingan holda maqsadga eltuvchi yul va vositalarni tanlash, maqsadga erishtiruvchi aniq bosqichlarni ajratish, ularning har biri uchun xususiy vazifalarni belgilash, erishilgan natijani nazorat qilish va baholash kunikmalari xamda shakllarini aniqlash kabilardan iborat.

Haqiqqiy o'qituvchi auditoriyaga rejaning barcha ikir chikirlarini batafsil, aniq bilmasdan, o'ylamasdan kira olmaydi. Bunda rejaning hajmi

emas, balki mohiyati, ya'ni uning uqituvchi kuz ungida gavdalanishi muhimdir. SHu o'rinda aytib utish joizki, uqituvchi faqat bitta emas, balki bir qancha reja variantlarini tuzishi zarur, chunki kuz ilgamas, xisobga olinmay qolgan omillar ham bulishi mumkin.

Tashxislash, bashorat etish, loyihalash, rivojlantirish har qanday ta'lim- tarbiya faoliyatida uqituvchining tayyorgarlik kurish bosqichidagi asosiy vazifadir.

Ta'limiy-tarbiyaviy jarayonning navbatdagi ikkinchi bosqichida uqituvchi tashkilotchilik, axborotchilik, nazoratchilik, baholovchilik va uzgartirishlar kirituvchilik vazifalarini bajaradi.

Ukituvchining tashkilotchilik vazifasi kuzlangan maqsadga erishish yulida ukuvchilarning dikkat-e'tiborini jalb etish, ular bilan hamkorlik faoliyatida ishtirok etishdan iborat.

Uqituvchini axborotchilik vazifasining mohiyati ayni makon va zamonda uqituvchiga asosiy akborot manbai sifatida qarash (tasavvur etish)ni kuzda tutadi. U takomil darajada hamma narsani, ya'ni uqitadigan predmetni, psixologiyani, fiziologiyani, pedagogikani biladi, ularga asoslanib kasbiy- pedagogik faoliyatni amalga oshiradi, deb faraz qilinadi.

Ba'zi hollarda uqituvchilarni baholashda nazoratchilik va uzgartirishlar kirituvchilik vazifalari yaxlit olib qaraladi. Uqituvchi bunday vazifani eng avvalo, ragbatlantirish maqsadini kuzda tutib, ta'lim-tarbiya jarayonini harakatlantiruvchi kuch sifatida e'tirof etadi. SHuni aniq bilish zarurki, ta'lim-tarbiyada zurlash va qistovlar bilan muvaffaqiyatga erishib bulmaydi. Ukuvchilar bilan ishlashda ustalik bilan ularda uqib o'rganishga istak va qiziqish uygotish yullarini topish zarur. Nazorat va baholash chogida faqatgina uquvchilarning qanday uzlashtirganlarigina emas, balki uzlashtirmasliklariga sabab bulgan jihatlar ham kuzga tashlanadi. Demak, bu bosqichda yigilgan axborotlar uqituvchining istiqboldagi faoliyatini rejalashtirish, takomillashtirish va maqbullashtirish uchun asos buladi. Uqituvchi bajaradigan vazifalarning ko'pligi uning ishida talaygina ixtisosliklar (aktyor, rejissyor, menedjer, taxlil etuvchi, tadqiqotchi va x.k.) asosiy xususiyatlari mujassamlashganligidan dalolat beradi Ukituvchi kasbiy pedagogik vazifalardan tashqari oilaviy, fuqarolik, jamoatchilik vazifalarini ham bajaradi.

Kishilik jamiyatida odamzod uz-uzini anglagandan boshlab, ustozlar mavjud bulgan. Quyosh olamni yoritar ekan, ular kelgusida ham buladilar.

Bizning barcha muvaffakiyatlarimiz hamda tushkunlikka tushganimizda eng yaqinlarimiz bulgan ota-onamiz va uqituvchilarimiz yonimizda buladilar. SHuning uchun ham xalkdmizda "Ustoz otangdan ulug" qabilidagi maqol keng kulamda kullaniladi.

Uzoq tarixdan ma’lumki, uqituvchi ustozlar qanday bulsa, jamiyatning ham ushanday temir qonuniyati mavjud.

Kasb hunar kollejlarida ta’lim tarbiya jarayoni va uni loyihalashtirish.

"Loyihalash" iborasi pedagogikaga texnika sohasidai kirib kelgan bulib, reja tuzish ma’nosini anglatadi. Pedagogik faoliyatni loyixalashtirish zaruriyati uning mazmunini murakkabligi bilan bogliq.

Pedagogik loyihalashtirish pedagog kasbiy faoliyatida muxim ahamiyat kasb etadi, u tashkilotchilik, bilish (gnostik), muloqotga kirishuvchanlik (kommunikativ) va boshqa vazifalar bilan uzviy bogliq. V.S. Bezrukovning fikricha, kasb ta’limi uqituvchilari pedagogik loyihalashtirish uchun 28 foizga yaqin ish vaqti sarflar ekanlar.

Pedagogik loyihalashtirishning vazifalari turlicha bulib, yangi pedagogik texnologiyalarni amalga joriy etishga imkon beradi. Loyihalashtirish hiobiga ta’lim-tarbiya jarayoni texnologiyalanuvchanlik xususiyatiga ega buladi. Loyihalashtirish malakasini egallash pedagoglarga samarali omillarni izlab topish imkoniyatini beradi. Pedagogik loyihalashtirish vazifalarini chizma shaklida quyidagicha ifodalash mumkin (5-chizma).

5-chizma

Pedagogik loyihalashtirish vazifalari




Pedagogik loyiha eng avvalo, model bulib, ideal va pedagogik amaliyotda pedagogik faoliyatni qiyoslash yuli bilan ilmiy bilishning samarali vositasidir. Loyihalash asosida kelgusida

ta’lim jarayonining rivojlanishrshi ilmiy bashorat etish mumkin. SHuningdek, loyihalashtirish pedagogika nazariyasi bilan amaliyotni boglab turuvchi omildir. U ta’lim- tarbiya jarayonining barcha tarkibiy komponentlaridan, shu jumladan, pedagogning intellektual imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga imkon beradi. Pedagogika nazariyasi pedagogik loyihalashtirishning asosi bulib xizmat qiladi. Loyihalar uz urnida pedagogik amaliyotni takomillashtiradi.

Pedagogik loyiha ob’ektlari pedagogik tizimlar, pedagogik texnologiyalar, mazmuni, metodlari, tashkil etish shakllari, vositalari va natijasini yaxlit holda mujassamlashtirilib, u ishtirokchilarning bevosita uzaro bogliq ta’siri natijasida tahsil oluvchilarni rivojlantirish maqsadida loyihalashtiriladi.

Pedagogik vaziyat pedagogik jarayon doirasida ma’lum vaqtda bu jarayonning xolatini tavsiflovchi loyihalashtirish ob’ektidir. Pedagogik vaziyat bexosdan kelib chiqishi yoki maxsus loyihalashtirilishi mumkin.

Pedagogik vaziyat real shart-sharoitni hisobga olgan holda pedagogik jarayonni aniqlashtirish maqsadida loyihalashtiriladi.

Pedagogik texnologiyalar loyihalashtirish ob’ekti bulib, pedagog tomonidan turli metod, shakl va vositalardan foydalanilgan xolda xatti-harakatlar ketma-ketligini belgilaydi.

Ta’limiy makonni loyihalashtirish yangi turdagi ukuv binolari kurish, ularni jihozlash va shu kabilar uchun amalga oshiriladi.

Pedagogik loyihalashtirish texnologiyasi pedagogik tizimlar, jarayonlar, texnologiyalarni loyixalashtirish murakkab va kup bosqichli faoliyatdir. V.S. Bezrukova fikricha u: modellashtirish, loyixalashtirish va konstruktsiyalashtirish boskichlaridap iborat.

Pedagogik modellashtirish ob’ektning ideal obrazini shartli ravishda ishlab chiqish bulib, uning muhim jihatlarini uzida mujassamlashtiradi. Modellar yozma, matn, grafik va faraziy bulishi mumkin. Ularda pedagogik maqsadlar, vazifalar, samarali shart-sharoit, ob’ektning tarkibiy qismlari va ularning faoliyat kursatish usullari uz aksini topadi.

Loyihalashtirishning ikkinchi bosqichi loyixa tuzish bulib, bunda model pedagogik faoliyatda foydalanish mumkin bulgan darajaga yetkaziladi. Pedagogik loyihalashtirishning uchinchi bosqichi konstruktsiyalash bulib, unda loyiha batafsil kismlarga bulinadi, real shart-sharoitga yaqinlashtiriladi, ya’ni bunda asosan metodik ishlar bajariladi.

## Adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: Sharq, 1998. 63 b.

2. Abdiquddusov.O., Rashidov. H. Kasb-hunar ta`limi pedagogikasi. O'quv qo'llanma. O'MKHTTKMO va UQT instituti, T. – 2009. 120 b.

3. Olimov Q.T., Abduqudusov O. va boshqalar. Kasb ta'limi uslubiyoti. - T.: "Moliya" nashiriyoti, 2006. – 160 b.

4. Sharipov Sh. va b. Kasbiy pedagogika (metodik qo'llanma). -T.:TD'U, 2006 y.

5. Nishonaliev U.N., Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S. Kasbiy ta`lim pedagogikasi. O'quv qo'llanma. –T.: TDPU, 2007-388 b.

**Mavzu: Kasb-hunar talimining maqsadi va mazmuni**

1.Kasbiy talim maqsadi ta’lim-tarbiya va o’quvchi shaxsini rivojlantirish.
2.Pedagog va o’quvchining faoliyati maqsadi va mazmuni.

Kasb-xunar ta’limining maqsadi va mazmuni

U yoki bu ta’lim texnologiyasining tanlanishi eng avvalo maqsadga, ya’ni qanday darajada bilim, xatti-xarakat usullari va shaxsiy fazilatlarning uzlashtirilishi nazarda tutilganligiga bogliq.

Aniq maqsadni kuzlamagan mashgulot samara bermaydi, chunki olingan natija bilan kuzlangan maksadni bir-biriga kiyoslab pedagogik jarayon (mashgulot) samaradorligini aniklash mumkin, xolos. Yetarli darajada aniq bulmagan maqsadsiz mashgulot ishtirokchilarning ortiqcha xissiyotlarga berilishi, ukuvchilarni o’quv-bilish faoliyatiga undovchi ragbatning pasayishi, ukuv materiali, ukuv predmeti, tanlagan kasbiga nisbatan salbiy munosabatda bulishi kabilarga sabab buladi.

An’anaviy ta’lim maqsadni pedagog faoliyati orqali ifodalashga intilgan. Masalan, kishloq xujalik mashinalari turkumiga mansub pluglarning tasniflanishini bayon etish. Bu bir tomonlamalikni keltirib chiqarishi tabiiy hol.

Ta’lim-tarbiya va ukuvchi shaxsini rivojlantirish maqsadlarini ta’lim mazmuni, pedagog va o’quvchining faoliyati orqali ifodalash bu sohada kutilayotgan natijalar hakida aniq tasavvurga ega bulish imkonini beradi.

Maqsadni ukuvchilar xatti-harakatida ifodalanadigan aniq ko’rinadigan va ulchanadigan natijalar orqali belgilash goyasi ilk bor R. Tayler tomonidan ilgari surilgan bulib, biz bu goyaga tulik, kushilamiz.

Kasbiy ta’lim maqsadi avvalo jamiyat va davlatning talab xamda extiyojiga binoan shakllantiriladi. Demak, u mashgulot (dars)ning ma’lum bosqichi maqsadidan to komil inson shaxsini shakllantirishgacha kengayib borishi mumkin.

Komil insonni shakllantirish jamiyatimizning oliy maqsadi bulib, u uzluksiz ta’lim jarayonida ta’minlanishi kuzda tutiladi.

SHuning uchun uzluksiz ta’lim tizimining umumiy maqsadi kuyidagi darajalarda aniklashtirilishi mumkin:

1.Respublikamiz uzluksiz ta’limining global maqsadi - barkamol shaxsni shakllantirish;

2.Oliy va o’rta maxsus ta’lim tizimining maqsadi - mehnat bozorida raqobatbardosh, yuqori malakali, keng ixtisosli mutaxassis kadrlarni tayyorlash.

3. kasb hunar kollejlarining maqsadi aniq soha uchun DTS va TTS doirasida bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlarga ega kichik mutaxassis kadrlar tayyorlash.

4. Ukuv predmetlarining maqsadi - aniq sonata oid texnika va ishlab chiqarish texnologiyalarining mohiyatini yorituvchi bilim, xatti-harakat usullari va shaxsiy fazilatlarni shakllantirish.

Mavzu (mashgulot, dars)ning maqsadi - ilmiy tushuncha, dalil, xulosalar

tizimini shakllantirish.

5. Mashg'ulot dars boskichining maqsadi - motivlashtirish, shakllantirish, nazorat qilib baholash kabilar.

Amaliyotda maqsadlar vazifa sifatida xam talqin etiladi, Demak, maqsad va vazifa shunday aniq kuyilishi kerakki, unga erishilganlik haqida aniq xulosa chiqarish imkoni mavjud bulsin. Buning uchun har bir vazifani shakllantirishda kuyidagilarga amal kilish zarur:

- har bir vazifani (mashgulot)dars yakunida ukuvchi quyidagilarni bajara olishi lozim..."deb boshlang;
- har bir vazifani raqamlang;
- har bir vazifani quyidagi amallar bilan boshlang: sanab uting, suzlab bering, kursatib bering, tanlang, xisoblang va xokazo.;
- har bir vazifani ukuvchi suzi bilan kuying;
- har bir vazifa faqat bitta natijani kuzlasin, ikki yoki undan ortigini

emas;

- har bir vazifani shunday kuyingki, u "ukuvchining uzini keyinchalik kanday tutishi kerakligiga ishora kilsin".

Ijtimoiy tajriba yoki madaniyatni maqsadga muvofiq pedagogik tilga ugirilishi, uni ukituvchi tomonidan uzatilishi va ukuvchilar tomonidan uzlashtirilishiga imkon beruvchi omillar tizimiga pedagogik jarayon deb ataladi.

Pedagogik jarayonni tashkil etuvchi muhim komponentlar sirasiga uning ishtirokchilari, maqsadi, mazmuni kiradi CHunki bu tarkibiy kismlar (komponentlar)siz ta'lim-tarbiya va rivojlanish jarayoni meьyorida kechishi mumkin emas.

Demak, pedagogik jarayonda ukuvchi bilimi, xatti-harakat usullari va shaxsiy fazilatlaridagi uzgarishlar bosh kursatkich hisoblanadi. SHuning uchun ham kasbiy ta'lim-tarbiya ishi shunday tashkil etilishi zarurki, unda imkon kadar belgilangan maqsadga erishilsin, buning uchun empirik tasavvurlar va hayotiy tajribalar bilan chegaralanib kolish kamlik qiladi.

Tulaqonli kasbiy ta'lim maqbul vaqt davomida belgilangan uquv materialini ukuvchilar tomonidan talab darajasida har tomonlama chukur va puxta uzlashtirilishini ta'minlab, jamiyat taraqqiyotiga uzining munosib hissasini qushuvchi yukori malakali, keng ixtisosli, rakobatbardosh mutaxassis kadrlar tayyorlashni anglatadi. Bundan kasb-xunar ta'limining aniq maksadga yunalganligi kelib chiqadi. Ana shu maqsadga yunalganlik uz navbatida jamiyat tarakqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, kasb-hunar ta'limi uziga xos ijtimoiy vazifani bajaradi.

Kishilik jamiyatining turli tarixiy davrlarida kasb hunar ta'limining maqsadlari, mazmuni, hajmi, xarakter, tashkil etish shakllari, amalga oshirish metod va vositalari turlicha bulgan.

Kasbiy ta'lim mazmunining hajmi kishilik jamiyati tajribalari, madaniyati kulamiga, xarakterы esa uning darajasi, yunalishi va eng avvalo jamiyat tuzilmasiga bogliq buladi. Bundan jamiyat maqsadi, talab va ehtiyojlari, orzu-umidlariga binoan kasbiy ta'lim-tarbiya mazmuni, uning tarkibi va yunalishi aniqlanishi kelib chiqadi.

Kasbiy ta'lim jarayonida ukuvchilar ta'lim (uquv materiali) mazmunini uzlashtiradilar. Bu mazmun qancha kam va tushunarli bulsa, kasbiy ta'lim- tarbiya jarayoni ham unga mos holda kisqa buladi. Lekin bu jarayon samaradorligi aniq boshlangich va sunggi holatiga kura baholanadi. Umuman, ta'lim-tarbiya, shuningdek, kasb-xunar ta'limi jarayoni murakkab jarayonlar turkumiga mansubligi e'tirof etilgan. CHunki ukuv materialini uzlashtirilishini ta'min etuvchi psixik jarayonlarni bevosita kuzatish imkoniyati mavjud emas. Ular tugrisida ukuvchilarning tashqi ko'rinishlari (hatti -harakatlari) va natijaga binoan xulosa chiqarish mumkin xolos. SHuning uchun ham kasb-xunar ta'limining mohiyatini tushunish uning qonuniyatlari va qoidalarini bilishni talab etadi.

Biz kasbiy ta'lim mazmuni deganda pedagogik tilda uz ifodasini topgan jamiyat tuplagan tajribalarni tushunamiz. U bir paytning uzida ta'lim maqsadlari, uzlashtirish ob'ekti, ta'lim-tarbiya natijasi sifatida namoyon buladi. Kasb-xunar ta'limi jarayonida maqsad, mazmun, uzlashtirish konuniyatlariga mos aniq maqsadlar shaklida ukuvchilar oldiga vazifa sifatida qo'shiladi. Ukuvchilar vazifalarning mohiyatini anglab, unga mos ukuv-bilish faoliyatini amalga oshiradilar. Natijada ukuvchilarning ongli, faol, mustaqil ukuv-bilish faoliyati orqali ukuv materialini uzlashtirilishiga erishiladi.

Ukituvchi uzlashtirish qonuniyatlarini bilish orqali ukuvchilarning ukuv- bilish faoliyatlarini boshqarish imkoniyatiga ega buladi. Uzlashtirish natijalari esa, uz navbatida keyingi xatti-harakatlar xarakterini belgilaydi. SHunday kilib, kasb-xunar ta'limi ma'lum maqsadlarning quyilishi bilan boshlanadi. Maqsadning quyilishi va uning qabul qilinishi turlicha kechishi

mumkin. Eng avvalo u diqkat-e'tiborini qaratish, eshitish, kurish, ushlab ko'rish, xatti-harakat usullarini bajarish, ya'ni idrok (his) etish darajasida amalga oshiriladi. Keyinchalik maqsadlar murakkablashib, turli vazifalar, savollar kurinishiga ega bulib, amaliy xarakterdagi ijodiy ishlarni bajarish darajasigacha oshib boradi. Maqsadlarni ukuvchilarning tugridan-tugri yoki bevosita talabalar ehtiyojlari, ya'ni materialning yangiligi, uquvchining mustakilligi, uziga bulgan ishonchi kabilarni hisobga olgan holda kuyish zarur.

Ta'limning keyingi bosqichi yangi axborotni idrok etish va moxiyatini tushunishni tashkil etishdir. Idrok etish turli yullar bilan tashkil etiladi, unda avvalgi uzlashtirilganlarga tayanish va kelgusilariga ishora qilish holatlari bir paytning uzida kechadi. Bunda yangi materialni tashkil etish turlicha: induktiv, deduktiv yoki traduktiv kabilar ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Keyingi bosqich idrok etilganni xotirada saqlash, yangi axborotlarni mustahkamlashdir. Lekin uqituvchi uchun xar doim uzlashtirish jarayoni qanday kechayotganligini bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun uz navbatida teskari aloqani amalga oshirish zarur. Teskari aloqa faqat uqituvchiga uzlashtirish natijalarini aniqlash uchungina emas, balki ukuvchilar uchun uzini-uzi nazorat qilish, uqib-urganishga nisbatan ongli munosabatda bulish uchun zarur. SHuning uchun ham uzlashtirish natijasini nazorat qilish kasbiy ta'lim-tarbiya jarayonining muhim bosqichi sifatida e'tirof etiladi.

Yuqorida zikr etilgan barcha boskichlar birgalikda kasbiy ta'limning yaxlitligini ifodalaydi. SHuningdek, bu barcha bosqichlar ochiq-oydin uzini kursatadi, degan ma'noni anglatmaydi. Real ta'lim jarayonining u yoki bu bulagida (boskichida) ular urin almashishi va turli darajada namoyon bulishi mumkin. Bu holat pedagogik mantiqqa tegishlidir. Ta'lim jarayonini xarakatga keltiruvchi kuch sifatida jamiyatning yukori malakali, keng ixtisosli, raqobatbardosh kadrlarga bulgan talabi bilan ularni xaqiqiy tayyorgarlik darajasi orasida ziddiyatlar e'tirof etilgan. Bu ziddiyatli holatni harakatga keltiruvchi kuch sifatida barcha ko'rinishda ta'lim mazmunini uzlashtirish va o'quvchini shakllantirish qonuniyatlari xisobga olingan holda amalga oshiriladi. Demak, kasb-xunar ta'limida jamiyat talablari asosiy omil xisoblanadi. Ularsiz kasbiy ta'lim-tarbiya jarayoni bulmaydi, bulinsh xam mumkin emas. Jamiyatda yosh avlodni tgshyorgarlik darajasiga quyilgan talablar kasbiy tayyorgarlik natijalarini baxolash uchun uziga xos me'yor va mezon vazifasini utaydi. Har doim ham talab bilan tayyorgarlik darajasi bir-biriga moe bulavermaydi, bunday holat uz navbatida uzok tarix davomida isbotlangan va muntazam ravishda rivojlanib boruvchi tajribalarni tez fursatlar ichida urganish mumkinligini ko'rsatadi. SHuning uchun xam xar doim zikr etilgan ziddiyatli xolat kasb ta'limini xarakatlantiruvchi kuch sifatida xizmat qiladi. Bu ziddiyat turlicha shaklda uz ifodasini tonishi mumkin. Xar bir shaxsga

kasbiy ta'lim berishda xarakatga keltiruvchi kuch, bir tomondan unga quyilgan talab, ikkinchi tomondan, undagi imkoniyat va motivlar orasidagi ziddiyatlar hisoblanadi. Ma'lumki, motivlarsiz kasbiy ta'lim jarayoni amalga oshmaydi. Demak, ukuvchilarning motivatsiyasi ziddiyatlarning muhim komnonentidir.

Kasbiy ta'lim uqituvchi-ukuvchi, faol uquv-bilish faoliyati xamda ta'lim mazmunining uzaro ta'siri, aloqadorligi jarayonida sodir buladi. Aynan mana shu xolat ta'limning ikki tomonlamaligi, ya'ni mazmuniy va jarayoniy jihatlarining yaxlitligini kursatadi

## Adabiyotlar ro'yxati:


1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: Sharq, 1998. 63 b.
2. Abdiquddusov.O., Rashidov. H. Kasb-hunar ta`limi pedagogikasi. O'quv qo'llanma. O'MKHTTKMO va UQT instituti, T. – 2009. 120 b.
3. Olimov Q.T., Abduqudusov O. va boshqalar. Kasb ta'limi uslubiyoti. - T.: "Moliya" nashiriyoti, 2006. – 160 b.
4. Sharipov Sh. va b. Kasbiy pedagogika (metodik qo'llanma). -T.:TD'U, 2006 y.
5. Nishonaliev U.N., Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S. Kasbiy ta`lim pedagogikasi. O'quv qo'llanma. –T.: TDPU, 2007-388 b

**Mavzu: O’rta-maxsus kasb-hunar ta’limi bitiruvchilarining ishlab chiqarishga moslashuvi.**

1.Kichik mutaxassislarning o’qishni tugatgandan so’ng korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlariga kirishib ketish jarayonining ijtimoiy jihatlari.

2.Kichik mutaxassislarning o’qishni tugatgandan so’ng korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlariga kirishib ketishning psixologik jihatlari.

**Kasb-hunar kollejlarini boshqarish**

Boshqaruv har qanday jamiyatga xos bulgan, hayotiy zaruratdan kelib chiqadigan faoliyatdir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bu faoliyatning mohiyati yanada oydinlasha boradi. Boshqaruvdan kuzlangan asosiy maqsad mehnat axlining moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqarishni va shu asnoda barcha ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirishdan iborat.

Boshqaruv davlat va jamiyat, jamoa va shaxslarning manfaatlarini kuzlagan holda demokratik uslub asosida amalga oshiriladi. Uz-uzidan ravshanki, bunday boshqaruv jarayonida inson omiliga, xususan umumxalq manfaati va milliy qadriyatlarni takomillashtirishga alohida e’tibor karatiladi. Demak, jamiyatimiz tinchligi va ravnakini ta’minlashda boshqaruv hal qiluvchi omil sifatida qaraladi.

Boshqaruv - tarakkiyotning har qanday boskchida jamiyatga xos bulgan; ichki xususiyatdir. Bu xususiyat u mumiy tavsifga ega bulib, u ijtimoiy jamoa mexnatida, turmush va mehnat jarayonida kishilarning uzaro aloqada bulishi, moddiy va ma’naviy faoliyatlarining natijasini uzaro almashtirish zaruratidan kelib chiqadi.

Mehnatning har qanday shakli - ijtimoiy yoki hamkorlikda qilinadigan mehnat - tashkil qilinib, uning natijasini «nazorat qiluvchi»ga ma’lum darajada muxtojdir. Tashkil etib, nazorat qiluvchi uz jamoasi ishlarini bir biriga muvofiqlashtiradi. Tashkil etib, nazorat qiluvchi ishlab chiqarish organizmining mustaqil a’zolari xarakatidan fark qilib, butun organi: harakatidan kelib chiqadigan umumiy vazifalarni bajaradi. Tugri boshkaruvning muhim sharti - boshqaruvchining, ya’ni rahbarning faoliyatidir.

Ma’lumki, jamiyat iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy sohalarni uz ichiga qamrab oladi. SHunga muvofiq tarzda boshkarishning ham kuyidagi asosiy yunalishlari mavjud:

-iktisodiy boshkaruv - iqtisod - moddiy ishlab chiqarish jamiyat xayoti va tarakkiyotining negizini tashkil etadi. SHu bois ham Prezidengimning raxnamoligida milliy tiklanish iqtisodni qayta kurishdan boshland Iktisodiy boshqaruv yangilanishlar davrida kun tartibidagi eng muhim masala hisoblanadi.

-ijtimoiy-siyosiy boshkaruv kishilarning turli jamoalari (ijtimoiy guruxlar, millatlar, elatlar, jamoalar va x-k.) urtasidagi munosabatlarni ana shu jamoalar ichida kishilar o’rtasidagi munosabatlarni ham boshqarishdi. Bunday boshqaruvning mohiyati — turli guruhlar ittifoqini yanada mustahkamlash va taraqqiy ettirishdan iborat. Bu turdagi boshqaruvdan kuzlangan maqsad, ijtimoiy tafovutlarni bartaraf etish, jamiyatning ijtimoiy bir xilligiga erishish, davlat boshqaruvini takomillashtirish, ijtimoiy uz-uzini idora qilishga utishdan iborat.

-jamiyatni va ayrim shaxslar ma’naviy rivojlanishini boshkarish

-

boshqaruvning muhim turidir. Biz yashayotgan jamiyat taraqqiy etmogi uchun uning barcha a'zolari yuksak intellektual salohiyatga, mustahkam soglikka ega bo'lishi kerak. Ijtimoiy tarbiya, ilm va ma'rifat berish, aholiga maishiy-madaniy xizmat kursatish ilmiy asosda boshqarish zaruratidan kelib chiqadi. Ilmiy texnika tarakkiyoti asrida ma'naviy ishlab chiarish sohasini boshqarish g'oyat katta ahamiyat kasb etadi. Bu shakldagi boshqarishda urta maxsus, kasb hunar ta'limi muassasalarini boshqarish fan, adabiyot, san'at, madaniyat, sog'liqni saqlash kabi sohalarni boshqarish tushuniladi.

19-chizma

Hozirgi kunda kasb-hunar kollejlarini boshqarish oshkoralik, demokratiya va uz-uzini boshqarish asosida amalga oshirilmokda.

Kasb hunar kollejlari uz-uzini boshqarishning oliy organi bulib, ilmiy pedagogik kengash hisoblanadi va uning faoliyati kuyidagi uzaro bogliq uch asosiy bosqichni kamrab oladi.

**<u>I. Kengashga tayyorgarlik ko'rish:</u>**

- kengash rejasini tuzish va uni muhokama etib tasdiqlash;
- navbatdagi muhokama etiladigan masalalarga oldindan tayyorgarlik kurish (ma'sul);
- ilgari qabul qilingan pedagogik kengash qarorlarini bajarilishi tahlil etish;
- kengash yigilishiga kasb-hunar kollejining barcha radb ursh1bosarlari, pedagoglar, muhandis-pedagoglar, yo'riqchilar va bo1]u xodimlarni jalb etish;
- muhokama etiladigan masalalar yuzasidan karor loyihalari tayyorlash va h.k.

**<u>P. Kengash yigilishini utkazish</u>**:

- rejalashtirilgan barcha masalalarni batafsil, reglament asosi muhokama etish;
- muhokama etilayotgan masala yuzasidan atroflicha fikr-muloh^azalar eshitish uchun ishtirokchilar faolligini ta'minlash;
- kengash yigilishini oshkoralik, uzaro xurmat va demokratik ruh utkazish;
- kun tartibiga kiritilgan barcha masalalar yuzasidan anik, qarorl1 qabul qilish va h.k.

**<u>SH. Kengash karorlarini amalga joriy etilishini ta'minlash:</u>**

- kengash qarorlariga maspul shaxslarni belgilash(tayinlash);
- karorlarni bajarish uchun zarur shart-sharoit va imkoniyat yaratish;
- karorlarni bajarilishini muntazam ravishda tezkor va rejada nazoratni tashkil etish xamda natijalar bilan kengash a'zolarini tanishtirib borish kabilar.

Kasb-xunar kolleji ilmiy pedagogik kengashi uning ta'lim-tarbiyaviy, ilmiy-uslubiy va ishlab chiqarish faoliyatiga taalluqli barcha asosiy masalalarni jamoaviy xal etuvchi oliy organdir. SHuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, ta'lim mazmunini takomillashtirish, kollej taraqiyotining asosiy yunalishlarini belgilash va boshkarish masalalarin xal qiladi. Ilmiy pedagogik kengashning qarorlarini bajarish kasb-xunar kollejlarining barcha jamoa a'zolari uchun majburiydir.

Kasb-xunar kollejlari ilmiy-pedagogik kengashining tarkibi, ishini mazmuni va tashkil etilishi faoliyatini boshkarish kabilar Oliy va urta maxsus ta'lim vazirligining 2001 yil 23 martdagi 6-sonli buyrugida 8 - ilova sifatida keltirilgan. Nizomga binoan kasb-xunar kolleji direktori ilmiy pedagogik kengash raisi xisoblanady. Uning tarkibiga direktorning: o'quv ishlari, kasb-xunar ta'limi, tijorat va marketing ishlari buyicha urinbosarlari, kafedra mudirlari, o'qituvchilar, psixolog, metodist, tarbiychilar, axborot resurs markazi boshligi, ota-onalar kumitasining rais kabilar kiritiladi. Ilmiy pedagogik kengash tarkibi kollej direktorinii buyrugi bilan tasdiklanadi.



Ilmiy pedagog kengash karori kollej buyicha buyruk chiqqandan sung kuchga kiradi.

Bu o’z navbatida, kasb-hunar kollejlari ishini tashkil etib boshqaruvchi rahbarning faoliyati bilan ham uzviy bog’likdir. Qaysi kasb-hunar kollejida ichki va tashqi nazorat shilari yaxshi yulga kuyilgan bulsa, usha ziyo maskanida ta’lim tarbiya ishlarining sifati va samaradorligi yuqori buladi. Rahbar uzi rahbarlik qilayotgan pedagogik jamoasi ishini okilona tashkil etib boshqarish ma’suliyatini bilib, yul kuyilgan kamchiliklarni uz vaqtida bartaraf etilishini ta’minlanishi zarur. SHu maqsadda 2001 yilning 23 martida Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi maxsus buyruq bilan kasb-xunar kollejlarida ichki nazorat tizimining namunaviy Nizomini tasdiqlagan. Bu me’yoriy mazmuni kuyidagilardan iborat:

Ichki nazorat - ta’lim-tarbiya jarayonini muntazam ravishda urganib, pedagogik jamoa ishini boshqarib borishning bir turidir.

Ichki nazoratning asosiy maqsadi davlat ta’lim standartlarining kasb-hunar ta’limi mazmuni va sifatiga quygan talablarini bajarishdir.

Ichki nazoratni tugri tashkillashtirish va uni joriy etishga shaxsan kasb hunar kolleji rahbari maspuldir.

Ichki nazoratni direktor, direktor urinbosarlari bilan bir qatorda homiy, vasiy va jamoat tashkilotlarining maspul xodimlari utkazishi mumkin.

Ichki nazoratni tashkil etishda quyidagilarni inobatga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

ta’lim tarbiya jarayonini mukammal urganishda dars jarayonining mazmuni va sifatiga, ukuvchilarning bilim darajasi va kasbiy ko’nikmasiga a’lohida e’tibor berish;

o’tkazilgan ichki nazorat natijalarini doimo qayta urganib, tahlil qilib borish;

mutaxassisligi va pedagogik tajribasi asosida ichki nazoratni amalga oshirish;

ta’lim-tarbiya jarayonini ilgor pedagogik va axborot texnologiyalarining yutuqlari asosida tashkil etish;

kasb hunar ta’limini unumli mehnat bilan birga olib borish;

malakali kichik mutaxassis kadrlar tayyorlashda korxonalar ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish;

ishlab chiqarish korxonalaridan yuqori malakali kadrlarni ta’lim jarayoniga jalb etish;

pedagogik va muhandis-pedagoglarning ta’lim texnologiyalaridan okilona foydalanish bo’yicha malakalarini oshirib borish;

o’quv reja, dasturlari va ukuv-uslubiy ishlarni takomillashtirish; maьishiy-ma’rifiy ishlarni samarali amalga oshirish omillarini ishlab chiqish, joriy etish va h.k.

Har bir o’quv haftasi davomida ichki nazorat tadbirlarini o’tkazishni bir martadan, direktor o’rinbosarlari esa ikki martadan rejalashtiradi.

Odatda ichki nazorat rejasi va jadvali o’quv yili uchun ishlab chiqiladi va pedagogik tasdiklanadi.



Ichki nazoaraat kasb hunar kollejlari faoliyati quyidagi yo’nalishilarini tahlil qilishga yo’naltiriladi:

-ta’lim sohasida yagona davlat siyosatiniamalga oshirishga;

-kasb-hunar ta’limi mazmuni va sifatiga qo’yilgan talablarni bajarilishiga;

-yuqori sifat va samaradorlikni ta’minlovchi pedagogik texnologiyalarni ta’lim tarbiya jarayoniga joriy etishga;

-o’quvchilarning biim saviyasi, kasbiy ko’nikma va malakalarini hamda tarbiyalanganlik darajasini aniqlashga;

- standart talablari, o’quv reja va dasturlarning to’liq bajarilishiga;

-o’quvchilarning mustaqil ishlarini talab darajasida tashkil etilib o’tkazilishiga;

- har bir tayyorlov yo’nalishi, kasblar va o’quv predmetlari bo’yicha moddiy texnik xamda o’quv uslubiy ta’minot holatini aniqlash va mustahkamlashga;

-darsdan va kollejdan tashqari ma’naviy – ma’rifiy tadbirlar hamda to’garak ishlarini muntazam ravishda maxsus rejaga binoan amalga oshirishga;

- uslubiy ishlarning samaradorlgini oshirishga;

-nazariy va ishlab chiqarish ta’limi darslariga kirib, ishlab chiqarish amaliyoti va darsdan tashqari tadbirlarda qatnashib, ularni tahlil qilishga;

-

-o’qituvchi muhandis-pedagogik va tarbiyachilarning ish faoliyati, tajribalarini o’rganib borishga;

-texnika xavfsizligi qoidalariga rioya etishga;

- uy vazifalarini hajmi va mazmunini, nazorat ishlarini bajarilishiga;

-huquqiy-me’yoriy xujjatlar, xisobotlarning taxlillari va shu kabilarga.

Ichki nazorat natijalarini hisobga olib borish uchun alohida jurnal tug’iladi. Tahlil qilingan har bir dars ikki kun ichida jurnalga yozib borilishi zarur.

Har bir daars tahlili pedagogik kengash yoki turkum o’quv predmetlari uyushmalarida muhokama qilinib, kamchiliklarni bartaraf etish bo’yicha zarur chora tadbirlar ishlab chiqiladi va direktor tomonidan tasdiqlanadi.

Kasb hunar kollejlari ichki nazoratini tashkil etishning namunaviy rejasida: o’quv ishlari, ma’naviy va ma’rifiy ishlar, o’quv uslubiy ishlar, kadrlar bilan ishlash, moliyaviy xo’jalik faoliyat, axborot resurs markazi ishlari, maxsus fanlar kabinetlari, o’quv ishlab chiqarish ustaxonalariga rahbarlik qilish, ishlab chiqarish ta’limi va amaliyoti , diplom oldi amaliyotlari, kafedralar va bo’limlarda amalga oshiriladigan boshqa ishlar quyidagicha jadval shaklida rejalashtirilishi maqsadga muvofiq.

Bu jadvalga alohida bandlar sifatida direktor yoki uning ttopshirig’i bilan tuzilgan komissiya tomonidan amalga oshiriladigan ishlar, o’quv ishlari bo’yicha direktori o’rinnbosari yoki uning topshirig’i bilan tuzilgan komissiya tomonidan amalga oshiriladigan ichki nazorat; ma’naviy ma’rifiy ishlar bo’yicha direktor o’rinbosari yoki u tayinlagan tomonidan amalga oshiriladigan nazorat ishlari ma’muriy xo’jalik ishlari bo’yicha direktor o’rinbosari, uslubchi va kafedra mudirlariniing o’quv mashg’ulotlariga kirib darsni tahlil qilishlaridir. Darslarga kirib kuzatish va tahlil qilish ma’lum maqsadga qaratilgan bo’ladi. Bunday kuzatishlar o’qituvchining faoliyati haqida aniq xulosalar chiqarish imkonini beradi. Agar kasb-hunar kolleji rahbarlari mashg’ulotlarga kirishda o’qituvchining ish tizimini hamda o’quvchilarning o’zlashtirishlarini aniqlashlarini maqsad qilib olgan bo’lsa, ular o’qituvchining turkum mashg’ulotlariga kirishni rejalashtiradilar. SHu o’rinda qayd etish zarurki, ishga yaqinda qabul qilingan va tajribasi o’rnak bo’ladigan o’qituvchilar ham naazardan chetda qolmasligi lozim. Mashg’ulot (dars)larni tahlil

etishda quyidagilarga alohida e’tibor berish zarur: darsning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarining aniq foydalanganligi; dars yaxlit xolda va uning ayrim bosqichlarini ayrim mantiqiy bog’liqligi hamda uzviyligi; mashg’ulot maqsadini, ta’lim mazmuni, ishtirokchilarning tayyorgarlik darajasi, shart-sharoit, tanlangan shakl, metod va vositalarga mushtarakligi; o’quvchilarning faolligini ta’minlanganligi; didaktik va kasb ta’limining xususiy printsiplariga amal qilishi; materialning ilmiy saviyasi va g’oyaviy yo’nalganligi; sarflangan o’quv vaqti; o’quvchilarning mustaqil ishlarininiing tashkil etilishi; maqsadga erishilganlik darajasi kabilar, kasb-hunar kollejlarining ichki nazoratining natijalari tashqi nazorat, ya’ni attestatsiya va akkreditatsiya uchun asos sifatida xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, kasb-hunar kollejlarining faoliyatini boshqarish direktor tomonidan amalga oshiriladi. Direktor oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi va vakolatli davlat organlari tomonidan tayinlanadi va kasb hunar kollejidagi barcha ishlarning natijasi uchun shaxsan javobgardir.

Kasb-hunar kolleji direktori ta’lim muassasi nomidan boshqa tashkilotlar oldidida vakolatga ega. U kollejning mulki, moddiiy ba’zasi va mablag’ining taqsimotchisi hisoblanadi, shartnomalar tuzadi, ishonch varaqalarini beradi, davlat banklarida hisob ochadi va kreditlarni boshqaradi.

**Adabiyotlar ro’yxati:**


1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: Sharq, 1998. 63 b.
2. Abdiquddusov.O., Rashidov. H. Kasb-hunar ta`limi pedagogikasi. O’quv qo’llanma. O’MKHTTKMO va UQT instituti, T. – 2009. 120 b.
3. Olimov Q.T., Abduqudusov O. va boshqalar. Kasb ta’limi uslubiyoti. - T.: “Moliya” nashiriyoti, 2006. – 160 b.
4. Sharipov Sh. va b. Kasbiy pedagogika (metodik qo’llanma). -T.:TD’U, 2006 y.
5. Nishonaliev U.N., Tolipov O’.Q., Sharipov Sh.S. Kasbiy ta`lim pedagogikasi. O’quv qo’llanma. –T.: TDPU, 2007-388 b.

**Mavzu: Ta’lim va ishlab chiqarish o’rtasidagi aloqalarni amalga oshirish jarayonlari.**

1.Korxonalrning yangi xo’jalik yuritishga o’tishi, faoliyat turlari kengayishi va o’zgarishi, o’rta va kichik biznes rivojlanishi va jamiyatning yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash ijtimoiy buyurtmasini bajarish.

2.Ijtimoiy-iqtisodiy o’zgarishlar sharoitida kasbiy ta’lim tizimini isloh qilish. Kichik mutaxassilarga (kollej bituruvchilariga) qo’yiladigan talablar.

3 «Ijtimoiy hamkorlik» tushunchasi. Ijtimoiy hamkorlar bilan faoliyat yuritishda ta’lim muasasalarining mustaqilligini oshirish.

4. Korxona va ta’lim muassasalarining yangi turdagi hamkorlik shakllari: ijtimoiy hamkorlar bilan ikki yoqlama, uch yoqlama shartnomalari.

**Kasbiy tayyorgarlik jarayonida ishlab chiqarish ta’limining urni**

Ishlab chiqarish ta’limi malakali mutaxassislar tayyorlash jarayonining asosiy tarkibiy qismidir.

Ma’lumki, kasbiy tayyorgarlik yoki insonni ma’lum aniq sohada ishlashga, ya’ni mehnat qilishga urgatish quyidagi ikki yul orkali amalga oshirilishi e’tirof etilgan:

a) ukuvchini malakali mutaxassis bilan bevosita hamkorlikda ishlash jarayonida, ya’ni usta-shogird tizimida;

b) maxsus muassasalarda tashkil etilgan kasbiy ta’lim-tarbiya jarayonida.

Usta-shogird yuli uzoq vaqt talab etilganligi va samaradorligining nisbatan pastligi sababli xozirgi vaqtda nisbatan kamrovli qullaniladi.

Ishlab chiqarish ta’limi kasb-hunar ta’limi muassasalarida malakali mutaxassislar tayyorlashning muhim qismidir. SHuning uchun ham kasbiy tayyorgarlik uchun ajratilgan umumiy vaqtning 40-45 foizi ishlab chiqarish ta’limiga beriladi. U moxiyatiga kura ta’lim-tarbiya jarayonida namoyon buladigan muxandis-pedagog (uqituvchi) bilan ukuvchilarning uzaro bogliq va bir-birini taqozo qiladigan faoliyatlarida uz aksini topadi. Bunday faoliyatning natijasi bulib, ukuvchilarda tarkib topgan amaliy bilimlar, kasbiy xatti-harakat usullari (kunikma, malaka) hamda shaxsiy fazilatlar hisoblanadi. Ishlab chiqarish ta’limi ta’lim - tarbiya ishining barcha umumiy qonun-qoidalariga qat’iy amal qiladi, shu bilan birga uning uziga xos xususiyatlari ham mavjuddir.

Ukuvchilarning ishlab chiarish jarayonida bevosita ishtirok etishlari ishlab chikarish ta’limining asosiy uziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi, bu uz navbatida uning mazmunini, tashkil etish shaklini, ukitish vositasi va uslubini aniklaydi.

Har kanday ta’lim-tarbiya jarayonida bulganidek ishlab chiqarish ta’limida ham uuvchilarning ukuv-bilish faoliyatining ikki tomoni, ya’ni ichki va tashki tomonini hisobga olish mudimdir. Ishlab chiqarish ta’limida uuvchilar faoliyatining tashqi tomoni - ularning ukuv-bilish

faoliyatlarida ma’lum kasbiy xatti-xarakat usullarini bajarishda, mahsulot tayyorlashlarida mexanizmlarni roslash va sozlashda, mashinalarni ishga va saqlashga tayyorlashda hamda texnika xavfsizligi qoidalariga amal kilgan holda ularni ishlatishlarida uz aksini topadi. Ichki (intellektual) faoliyat esa usta kursatmalarini qabul qilish, idrok etish, fikr yuritish, berilgan vazifalarni rejalashtirish, ularni bajarishning maqbul variant va usullarini belgilash, bajarilgan ish sifatini aniklash va baholash xamda uz xatti-xarakatlarini nazorat qilish kabilarda namoyon buladi. Ukuvchilar faoliyatining bu ikki tomonini uzaro birgalikda uzviy bogliq holda ukuv materialiga jalb etish natijasida ularda amaliy jihatdan muhim kasbiy ish-harakat usullari muvaffakiyatli shakllanadi.

Ukuvchilarning yuqorida kursatilgan ukuv-bilish faoliyatlarining ichki va tashqi tomonini boshqarish, ma’lum kerakli tomonga uzgartirish yoki yunaltirish ishlab chik,arish ta’limini amalga joriy etuvchi muhandis - pedagoglar faoliyatining mohiyatini tashkil qiladi, ya’ni nimani qanday uqitish kerakligini aniqlaydi.

SHuningdek, muhandis-pedagog-yurik,chining ish faoliyatiga uquv materiali- ning mazmuni, uquvchilarning tayyorgarlik darajasi , mashgulot utkaziladigan sharoit, yuriqchining kasbiy-pedagogik tayyorgarlik darajasi va shunga uxshash kuplab omillar ham ta’sir qiladi.

Odatda kasb-xunar muassasalarida ishlab chiqarish ta’limi mashgulotlari laboratoriyalarda, ukuv ustaxonalarida, ukuv-mashk qilish maydonlarida, otaliq xujalik hamda korxonalarda utkaziladi.

SHu urinda xar qanday mashgulot kabi ishlab chikarish ta’limi mashgulotlari ham muhandis-pedagogning kuplab omillariga muvofiq hal etadigan ijodiy ishi ekanligini unutmaslik lozim. Ishlab chiqarish ta’limi mashgulotlarini yuqorida zikr etilgan joylarda tashkil qilishning uziga xos afzallik va kamchiliklari mavjud bulib, ularni oqilona tashkil etish va utkazish uchun muhandis-pedagog eng avvalo materialining mazmunini, mashgulot maksadi va utkazish shart-sharoitlarini bilishi lozim. Ishlab chikarish ta’limining maksadi va mazmuni tayyorlov yunalishi buyicha mutaxassislik malaka tavsifnomasi hamda ukuv dasturlarida uz ifodasini topadi.

Ishlab chiqarish ta’limi dastlab ukuv laboratoriyalari va ustaxonalarida tashkil etilib, ularda ukuvchilar ilk bor kasbiy mahorat sir-sinoatlarini egallashga kirishadilar.

Korxonalarda tashkil etilgan ishlab chiqarish mashgulotlari ukuvchilarda uzlari tanlagan mutaxassislik buyicha kasbiy bilim va xatti-harakat usullarini zamonaviy asbob-uskunalar, moslamalar va ish kurollaridan foydalanilgan holda tarkib topishiga sharoit yaratadi.

Bunday mashgulotlar hakiqiy amaliyotga mumkin kadar yakin sharoitda tashkil etilganligi

sababli ukuvchilarni tanlagan kasbiy mehnatini ijtimoiy-iqtisodiy hayot bilan yakindan tanishtiradi, mustaqillik darajasi va ijodiy faolligini oshiradi.

Har anday ishlab chikarish ta’limi mashgulotlari (darslari) quyidagi uch bosqichdan iborat buladi:

muhandis-pedagogning boshlangich (kirish) kursatma yoki yul-yurik berishi;

ukuvchilarning mustaqil ish bajarishlari, mashq qilishlari, ayni vak,tda muhandis-pedagog faoliyati, ya’ni joriy yul-yo’riqberishi; mashgulotda ukuvchilar faoliyatini baholash uchun yakuniy yul-yuriq berish.

Yul-yo’riq berish (instruktaj) - uqituvchi yoki muhandis-pedagogning uquvchi

larga berilgan topshiriq (vazifa)ni xavfsizlik texnikasi qoidalariga tuliq rioya qilgan holda amalda bajarish tartibi haqida uquvchilar dikqat-e’tiboriga havola etiladigan yul-yurikdar, talablar va ogohlantirishlar mazmuniga ega bulgan fikrini bayon qiilish shaklidir.

Ishlab chiqarish ta’limi jarayonida, ayniqsa muhandis-pedagog foydalanadigai ish kurollari, asbob-uskuna va moslamalarining sifati, ulardan tugri foydalanish tartibi, rioya kdlinadigan xavfsizlik texnikasi va sanitariya oidalari, pedagogning bajariladigan ish sifati :hamda samaradorligiga bulgan talablarini buzilipshning oldini olish hakida beradigan ko’rsatmalari muhim ahamiyatga ega.

Ukuvchilarning darsga qizikishi va ukuv materialiga diqqat- e’tiborini tortish uchun usta hayotiy misollar, asosli dalillar keltirishi, ushbu mashgulotda tarkib topishi kuzlangan bilim va xatti-harakat usullarining kasbiy faoliyat uchun ahamiyatini ko’rsatib utishi lozim.

Odatda ishlab chiqarish ta’limi mashgulotlarida kirish yuriqnomasini berish kuyidagi tartibda olib boriladi: yangi o’rganiladigan mavzu va mashgulot maksadi bayon etiladi; oldin utilgan mavzular buyicha o’quvchilar egallagan bilimlari va xatti-harakat usullarining shakllanganlik darajasi aniklanadi: bajarilishi kuzda tutilgan vazifa, topshiriq yoki ishning amaliy a:hamiyati, xususiyatlari va bajarilish tartibi bayon etiladi: texnik- texnologik chizma va, xaritalar hamda talablar kursatiladi: foydalaniladigan material, asbob-uskuna, moslamalar va tunga uxshashlar bilan qanday ishlash kerakligi tushuntiriladi; vazifani bajarishning maqbul (oqilona) shart- sharoitlari, usullari va tartibi bayon etiladi: vazifani bajarishda ukuvchi yul kuyishi mumkin bulgan xatoliklar va ularni uz vaktida oldini olish chora-tadbirlari kursatiladi. SHu o’rinda ьsirish yuriqnomasini ukuvchilar kanday darajada uzlashtirganliklarini tekshirish, ha.r bir ukuvchiga shaxsiy vazifa berish va ularni ish urinlariga taqsimlash, shuningdek, vazifani bajarishda rioya qilinishi lozim bulgan mehnat xavfsizligi qoidalariga aloxida e’tibor beriladi.

Ukuvchilarning mustaqil ishlari yoki mashk kilishlari pedagogik jihatdan ilmiy asoslangan, didaktik konun-koidalariga binoan tuzilgan tizim bulib, texnologik ji:hatdan ma’lum ketma-ketlikda kuzlangan bilim va xatti-harakat usullarini egallashni nazarda tutadi. Mashgulotning bu boskichida usta ukuvchilarning xatti-harakatlarini doimiy kuzatib borib, ularning ishiga rahbarlik ьdiladi, kerak bulgan vaktda bir necha marta ma’lum maksadni kuzlab ish o’rinlarini aylanib chiqadi, ukuvchilar faoliyatini nazorat kiladi. SHuningdek, bunday ko’satma berish vaktida barcha ukuvchilar bir vadtda vazifani bajarishga kirishganliklarini tekshirish, ularni har birlari uz ish urinlarini kanday tashkil etganliklarini nazorat kilish, ukuv, texnik-texnologik, tashkiliy-iktisodiy va shunga uxshash didaktik materiallar xamda xujjatlardan tugri foydalanishlarini tekshirish kabi maqsadlarni kuzda tutadi. Bir suz bilam aytganda, joriy kursatma bershp uB^vchilarni amaliy bilimlar va kasbiy xatti-harakat usullarini egallashlari xamda texnologik jarayon va operatsiyalarni sifatli bajarishlariga qaratilgan buladi.

Ishlab chiqarish ta’limi mashgulotlarining bu bosqichida mudandis- pedagog quyidagilarga aloxida e’tibor berishi kerak:

- barcha o’quvchilar ishini e’tibordan chetda qoldirmagan xolda, xar bir ukuvchi ishiga sinchkovlik bilan qarash;
- zaruriyat bulmagan hollarda uquvchilarning ishiga aralashmasliq
- ukuvchilarda uz faoliyatini tahlil qilish, yul kuygan xatolarining sabablari va ularni uz vaqtida bartaraf etish yullarini iloji boricha mustaqil holda fikr yuritib topishlari uchun sharoit yaratish;
- ukuvchilarning uz vazifalarini oxiriga yetkazmay tashlab ketish kabi maspuliyatsizliklariga qarshi kurashish;
- bajarilgan ishni baholashda avvalo ukuvchilarning yutuklarini sungra esa kamchiliklarini ko’rsatish.

Bunday mashgulotlarda yakuniy kursatma berish ham muhim axamiyatga

ega.

Yakuniy kursatma berishning mazmuni, tashkil etish shakli va utkazish uslubi muayyan aniq mashgulot natijalariga kura aniklanadi va uning maqsadi ukuvchilarning yutuq va kamchiliklarini kursatishdan iborat buladi. Biz yukorida ishlab chikarish ta’limi mashgulotlarining umumiy uziga xos bosqichlari va tarkibiy elementlari bulgan kursatmalarning mohiyati, maksadi va utkazilish tartibi bilan kiskacha tanishtirishga harakat kildik. SHu urinda aytib utish kerakki, bunday ko’rsatma berish sxemasi katьiy va majburiy bulmay, balki, ukuv materialiniyg xususiyatlariga, muhandis- pedagogning tayyorgarlik darajasi va tajribasiga, ukuvchilarning tayyorgarlik darajasiga, mashgulot utkazish shart-sharoitlariga qarab moe

ravishda ijodiy hal etilipsh mumkin.

Kasb-hunar kollejlarida kasbiy tayyorgarlik maxsus tashkil etilipsh, kasbiy tayyorgarlik va malakali ukituvchilar, zamonaviy vositalar yordamida amalga oshirilganligi yuqori samaradorlik imkonini beradi.

Malakali mutaxassislar tayyorlashda ukuv jarayoni umumilmiy, umumkasbiy va maxsus fanlar turkumlaridan tashkil tonadi.

1. Ishlab chikarish ta'limining maqsadi - ukuvchilarda ma'lum aniq kasb, ixtisoslik buyicha kasbiy maxorat asoslari bilim, kunikma, malakalarni shakllantirishdan iborat.

2. Ukuvchilarning ta'lim-tarbiyaviy maksadlariga buysundirilgan ishlab chiqarish mehnatlari ishlab chik,arish ta'limining asosi xisoblanadi.

3. Ukuvchilarda egallanayotgan kasb (ixtisoslik)ga oid kunikma va malakalarni shakllantirish - ishlab chiqarish ta'limining mazmunini tashkil etadi.

4. Ishlab chikarish ta'limi jarayoni nazariya bilan amaliyotning uzviy aloqadorligida amalga oshiriladi.

5. Ishlab chikarish ta'limi nazariy ta'limga nisbatan faol jarayondir.

SHu sababli uqituvchining vazifasida axborot uzatish funktsiyasi kamroq bulib, radbarlik qilish, yo'naltirish va yul- yuriq kursatish vazifalari esa kuchaytirilgan buladi.

6. Ishlab chiqarish ta'limining maqbul utishi uchun o'qitishning texnik vositalari, eng avvalo moddiy-texnik baza, jihozlar, shuningdek, ukuv-ishlab chiqarish ob'ektlarining tugri tanlanganligi hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

**Bilim** - ob'ektiv olamni ongli idrok etish natijasida xotirada tizimlashtirilgan va mustahkamlangan tasavvurlar hamda urganilayotgan ob'ekt haidagi tushuncha, dalil, xulosa va hukmlar tizimidir.

**Kunikma** - ukuvchilarning mehnat va xatti-harakat usullarini ongli hamda to'g'ri bajarishga tayyor bulish kobiliyatidir.

**Malaka** - kasbiy xatti-harakat usullarini maqsadga muvofiq maksimal darajada aniq, tez va talab darajasida bajarishdir.

1. Ishlab chiqarish mehnati - ishlab chiarish ta'limining asosi hisoblanadi, lekin ishlab chiarish ta'limi ishlab chiarish mehnati bilan chegaralanib qolmaydi.

2. Ishlab chiqarish ta'limi jarayoni - ukuv jarayonidir, uning xar bir bosqichida kasbga o'qitishning uziga xos vazifalari uz yechimini topadi. Uquvchilarning ishlab chiqarish mehnati har doim ukuv vazifalariga buysundirilgan buladi.

3.Ishlab chiqarish ta'limi maqsad va vazifalari ustuvorligiьta ta'minlash uchun, avvalo ukuvchilarga kasb-hunar asoslarini o'rgatish zarur.

4.Ishlab chiqarish ta'limi samaradorligi uuv va ishlab chiqarish vazifalarining uzaro uygunligi bilan belgilanadi.

Ishlab chiqarish ta'limi tizimi deb bulajak mutaxassislarda kasbiy kunikma va malakalarni maqbul darajada tarkib toptirish maqsadida ukuv materialini, maqsadga muvofiq tizimlashtirilgan holda, uquvchilar mulkiga aylantirish izchilligiga aytiladi.

Ishlab chiqarish ta'limi tizimi ijtimoiy munosabatlar, ta'lim tizimi va ishlab chiqarishning rivojlanishiga kura uzgaradi. Kishilik jamiyatining turli bosqichlarida ishlab chiqarish ta'limining kuyidagi tizimlari kullanilganligi pedagog olimlar tomonidan e'tirof etilgan:

a) predmet tizimi - shogird tomonidan buyumning izchil ravishda, muayyan mikdorda, butun murakkabligida boshidan oxirigacha tayyorlanish jarayonini qamrab oladi. Bu tizimning kamchiliklari: shogird uzi tanlagan kasbi buyicha boshlangich kasbiy (elementar) kunikmalarga ega bula olmaydi, shuningdek, mazkur tizim ukuvchilarda tegishli ixtisoslik buyicha tulaqonli bilim, kunikma va malakalarni tarkib toptirish imkoniyatiga ega emas. Undan foydalanishda didaktik printsiplarga tulaqonli amal qilinmaydi, uquv dasturidan foydalanish imkoniyati deyarli mavjud emas. Nazariy va amaliy ta'limning aloqadorligi hisobga olinmaydi.

b) operatsiya tizimi - mehnat jarayonlarini aniq operatsiyalarga bulishga asoslanadi. Unga 1868 yilda Bauman nomidagi oliy texnika bilim yurtida asos solingan. D.K. Sovetskiy, V.P. Markov va ularning maslakdoshlari bu tizimning asoschilari hisoblanishadi. Bu tizim manbalarda "rus tizimi"deb ham yuritiladi va quyidagi ikki bosqichda amalga oshiriladi: birinchi bosqichda, ukuvchilar ukuv ustakonalarda operatsiyalarni bajarishni uzlashtirsa, ikkinchi bosqichda ular bevosita buyum, mahsulot (tovar) ishlab chiqarish jarayonida qatnashadilar. Operatsiya tizimining joriy etilishi bilan mexnat operatskyalarining murakkablashish, ta'lim tizimida ishlab chiqarishning ilmiyligi va ukuv dasturlarini yaratish, ta'limda nazariya bilan amaliyotning bogliqligi kabi didaktik printsiplarga amal qilinishiga shart-sharoit yaratadi, shuningdek, operatsiya tizimining ham uziga xos yidagi kamchiliklari e'tirof etilgan.

## Uquv ustaxonalarini tashkil etish va ularning ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirish

Ukuv ustaxonalarining jihozlariga kuyiladigan bosh talab ularning uquv dasturlariga mos kelishi, konstruktsiyalarining zamonaviyligi, universalligi, energiya sarfining kamligi, tannarxining nisbatan arzonligi, ulchamlarining katta bulmasligi, ishlatish va xizmat kursatishga qulay bulishi, xavfsizlik texnikasi qoidalarini ta'min etishi kabilardir. SHuningdek, uquv jihozlari korxonalar texnik jixozlariga mos bulib, ilgorlar tajribalarini uzlashtirishga imkon

berishi zarur.

Ukuv ustaxonalari jihozlarining nomenklaturasi va soni maxsus me’yornomalarda kursatiladi. Ustaxonalarda asosiy jihozlar bilan birga yordamchi jihozlar ham bulib, ular uquvchiga kisqa muddatli yordamchi operatsiyalarni bajarishga, shuningdek, har bir ish o’rnini tashkiliy texnik ta’minlashga imkon berishi kerak.

Ishlab chiqarish ta’limi dasturida ukuvchilar tomonidan uzlashtirilishi zarur bulgan bilim, xatti-harakat usullari va ish turlarining ruyxati ko’rsatiladi. U yoki bu mavzuni urganish jarayonida uquvchilar tomonidan bajariladigan ish ob’ektlari kollej muxandis-pedagoglari tomonidan urnatiladi. Ukuvchilar tomonidan kasbiy bilim, kunikma va malakalar tizimini ongli va puxta uzlashtirilishini ta’minlash uchun mutaxassislik bo’yicha mustaqil ishlar muhim axamiyat kasb etadi va ukuv ishlarini jiddiy uylab tanlashni kuzda tutadi.

Ma’lumki, uquv ishlarining ruyxati uquvchilarning tanlagan kasblari va ixtisosliklari buyicha ishlab chiqarish ta’limi dasturiga binoan qanday aniq uquv-ishlab chiqarish vazifalarini bajarishlari zarurligini aniqlash maksadida ishlab chiqiladi.

Ukuv ishlarini tanlashda kuyidagi talablarga amal qilish zarur:

9. buyum tayyorlash ukuv dasturidagi mos mavzularni o’rganish ketma-ketligini ta’miilashi zarur;

10. ukuv ishlari sifatida shunday buyum tanlab olinishi kerakki, u ma’lum qiymatga ega bulsin, ya’ni amalda kullash uchun yaroqli bulsin;

11. buyumlarning ulchamlari unchalik katta bulmay, ukuvchilarning uzlari ularni urnidan kuzgatish, bir joydai ikkinchi joyga olib borish, o’rnatish kabi ishlarni mustaqil holda bajara olsinlar;

Ruyxatni tuzishda kasbiy tavsifnoma, ukuv dasturi, didaktik printsiplarning hisobga olinishi asosiy shart xisoblanadi.

Ukuv ishlarining ruyxati - bu ukuvchilarning ishlab chiqarish ta’limini rejalashtirish buyicha asosiy hujjatdir. Har bir mavzu bo’yicha uquv ishlari ruyxatiga bitta emas, balki bir necha real ishlar kiritiladi, ular ushbu kasb buyicha ishlab chiqarish vazifalarini bajarish uchun yetarli bulishi, asta sekin murakkablashib, ukuv vaqtida bajarilish imkoniyati mavjud bulishi, murakkabligi va aniqligi uquvchilarni jismoniy imkoniyatlariga va olgan bilimlariga mos bulishi muqihimdir. Uquv-ishlab chiqarish ishlarining shakli kuyidagicha bulishi maqsadga muvofiq: rejalashtirilgan ish hajmi o’quv rejasida ushbu mavzuni urganish uchun ajratilgan vaqt mikdoriga mos bulishi zarur; har bir tayyorlanadigan buyum uchun texnik xujjatlar (chizmalar yo’riqnoma yoki texnologik xarita kabilar) va uquv davriga kura vaqt me’yori tanlanadi

## Adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: Sharq, 1998. 63 b.
2. Abdiquddusov.O., Rashidov. H. Kasb-hunar ta`limi pedagogikasi. O'quv qo'llanma. O'MKHTTKMO va UQT instituti, T. – 2009. 120 b.
3. Olimov Q.T., Abduqudusov O. va boshqalar. Kasb ta'limi uslubiyoti. - T.: "Moliya" nashiriyoti, 2006. – 160 b.
4. Sharipov Sh. va b. Kasbiy pedagogika (metodik qo'llanma). -T.:TD'U, 2006 y.
5. Nishonaliev U.N., Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S. Kasbiy ta`lim pedagogikasi. O'quv qo'llanma. –T.: TDPU, 2007-388 b.

## Qo'shimcha adabiyotlar

1. Muslimov N.A., Qo'ysinov O.A. Kasb ta`limi o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta`limni tashkiletish. (Metodik qo'llanma). T.: TD'U, 2006. 52 b.
2. MuslimovN.A., Sharipov Sh.S. O'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta`lim integratsiyasi. Kasb ta`lim metodikasi metodik qo'llanma. -T: TD'U, 2006. 48 b.
3. Sharipov Sh., va b. pedagogik amaliyot (metodik qo'llanma). -T.: TD'U, 2006. 34 b.
4. Sharipov Sh., Abduraimov Sh. Kasb ta`limi metodikasi fanidan laboratoriya mashg'ulotlari uchun metodik qo'llanma.-T: TD'U, 2007. 147 b.
5. Eldasheva G.V. Maxsus fanlarnio'qitish metodikasi. – O'MKHTTKMOvaUQT instituti, T. – 2006. 124 b.
6. KurbanovSh.E., Saidov X., AxliddinovR. Barkamolavlodorzusi. -T.: Shark, 1998.-154 s.
7. Tolipov O'.Q., Barakaev M., Sharipov Sh.S. Kasbiypedagogika (ma`ruzalarmatni). –T.: "Ofset-'rint" matbaasi, 2001. –100 b
8. Kurbanov SH.E., Seytxalilov E.A. Upravlenie kachestvom obrazovaniya. T.: SHark, 2004 g. (russk. yaz.), 2006 y. (o'zbek tilida).
9. Rashidov H.F. va boshqalar. "Kasbiy pedagogika" blokini o'qitish metodikasi. O'quv-uslubiy qo'llanma (Malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari uchun). –T.: O'MKHTTKMO va UQTI, 2007. – 200 b.

Savol1
Javob1Javob2Javob3
Javob4
Savol2
Javob1
Javob2
Javob3
Javob4Savol3
Javob1
Javob2
Javob3
Javob4
Savol4
Javob1

Javob2
Javob3
Javob4
Savol5
Javob1
Javob2
Javob3
Javob4